

# YUHANNOGA AYON QILINGAN VAHIY

## Kirish

Mazkur kitobda Isoning Yuhannoga ko'rsatgan vahiysi bayon etilgan. Bu vahiylar oxirzamon haqidadir. Yuhanno vahiylar ko'rganda, Egey dengizidagi Patmos orolida surgunda edi. Patmos oroli hozirgi Turkiyadagi Efes shahridan qariyb 100 kilometr janubi-g'arbda joylashgan.

Vahiylar kitobining asosiy mohiyati Xudoning Iso Masih haqidagi xabarini ayon qilish va qattiq quvg'in ostida qolgan masihiylarga umid baxshida etishdan iborat. Yuhanno quvg'inga duchor bo'lgan birodarlarni imonda mahkam turishga undaydi. Ularning e'tiborini oxiratga qaratadi. Oxiratda Xudo shayton ustidan g'alaba qozonadi. Iso Masih osmondan tushib kelib, barcha betavfiqlarni hukm qiladi va O'zining abadiy shohligini o'rnatadi. Shunda imonda oxirigacha sobit turgan birodarlar najot topishadi va boqiy baxtivorlikdan bahramand bo'lishadi. Rim imperiyasining vahshiy zulmi ostida qolgan masihiylar bu kitobni o'qib, Xudoga sodiq qolishardi.

Ushbu kitob obrazlarga va g'oyalarga nihoyatda boydir. Ular yordamida muallif Xudoning beqiyos qudrati va oxiratdagi odilona hukmini tasvirlaydi. Misol uchun, samodagi taxt, muhrlangan o'rama qog'oz va Qo'zi haqidagi vahiylar Xudoning va Iso Masihning cheksiz hokimiyatini aks ettiradi. Yetti muhr, yetti karnay va g'azab kosalar haqidagi vahiylar esa qiyomatda Xudoning hukmini va yer yuziga sohadigan qahrini tasvirlaydi. Yetti raqami kitobda bir necha bor ishlatilgan bo'lib, barkamollik ma'nosini ifodalaydi.

Kitobni mazmun jihatdan uch qismga bo'lsa bo'ladi: 1) dunyoda yovuz kuchlar mavjud. Masihiylar imon yo'lida azob chekishlari va hatto jonidan mahrum bo'lishlari mumkin. 2) Iso Masih Rabbiydir. U Xudoga qarshi bo'lgan hamma odamlarni va kuchlarni yengadi. 3) Xudoga oxirigacha sodiq qolgan odamlar uchun Iso Masih mukofotlar tayyorlab qo'ygan. Ayniqsa, Xudoni o'z jonidan ham ortiq ko'rganlarni U yuksak darajada taqdirlaydi.

## 1-BOB

### Muqaddima va duoyi salom

<sup>1</sup> Mazkur kitobda Iso Masihning vahiysi bayon etilgan. Yaqin orada yuz beradigan hodisalarni Xudo O'z qullariga ayon qilish uchun bu vahiylar Iso Masihga berdi. Iso Masih quli Yuhannoning oldiga O'z farishtasini yuborib, ushbu vahiylar ko'rsatdi. <sup>2</sup> Yuhanno Xudoning kalomi va Iso Masihning shahodati to'g'risida nimalarni ko'rgan bo'lsa, hammasi haqida guvohlik bermoqda. <sup>3</sup> Ushbu bashorat so'zlarini ovoz chiqarib o'qiyotgan odam baxtlidir. Uni tinglab\*, kitobda yozilganlarga amal qiluvchilar baxtlidir. Axir, bu hodisalar hademay yuz beradi.

<sup>4-5</sup> Asiya viloyatidagi imonlilarning yettita jamoatiga\* Yuhannodan salom! Azaldan bor bo'lgan, hozir ham bor, kelajakda ham bor bo'ladigan Xudodan, Uning taxti oldida

turgan yetti ruhdan, shuningdek, o'liklar ichidan birinchi bo'lib tirilgan, yer yuzi shohlarining Hukmdori bo'lgan ishonchli shohid — Iso Masihdan sizlarga inoyat va tinchlik bo'lsin.

Iso Masih bizni sevadi. U O'z qonini to'kib, bizni gunohlarimizdan xalos etdi. <sup>6</sup> U bizdan Shohlik yaratdi, bizni Otasi\* Xudoga xizmat qiladigan ruhoniylar qilib tayinladi. Qudrat Sohibi bo'lgan Masihga abadulabad shon–sharaflar bo'lsin! Omin.

<sup>7</sup> Ana, U bulutlarda kelyapti!  
Har bir ko'z Uni ko'radi,  
Hatto Unga nayza sanchganlar ham Unga ko'z tikadi.  
Dunyoning jamiki qabilalari Uni deb yig'laydi.  
Darhaqiqat, hammasi aytilganday bo'ladi! Omin.

<sup>8</sup> “Men Ibtido va Intihodirman\*, — deb aytmogda Egamiz Xudo. — Men oldin bor bo'lgan, hozir ham bor, kelajakda ham bor bo'ladigan Qodir Xudodirman.”

### **Yuhanno vahiyda Masihni ko'radi**

<sup>9</sup> Men birodaringiz Yuhannoman. Isoning azoblari, Uning Shohligi va sabr–toqatini baham ko'rgan sherigingizman. Men Xudoning kalomini va'z qilib, Iso haqida guvohlik berganim uchun Patmos oroliga\* surgun qilinganman. <sup>10</sup> Yakshanba kuni\* Muqaddas Ruh meni qamrab oldi. Men orqamdan karnay sadosiga o'xshash kuchli bir ovozni eshitdim. Ovoz shunday dedi\*: <sup>11</sup> “Ko'rganlaringni kitobga yozib bor. So'ng uni Efes, Smirna\*, Pergamon, Tiyatira, Sardis, Filadelfiya va Laodikiya shaharlaridagi imonlilarning yettita jamoatiga yubor.”

<sup>12</sup> Menga gapirayotgan Kimsani ko'rish uchun o'girildim. Shunda yettita oltin chiroqpoyani ko'rdim. <sup>13</sup> Chiroqpoyalar orasida inson qiyofasidagi bir Zot\* turgan edi. Uning ustida uzun, to'pig'igacha tushgan rido bor edi, ko'ksiga oltin tasma bog'langan edi. <sup>14</sup> Sochi momiqday oq, qorday oppoq edi. Ko'zlari esa olovday chaqnardi. <sup>15</sup> Uning oyoqlari o'choqda qizdirilgan bronzaday yarqirar, ovozi guvullagan dengiz tovushiga o'xshardi. <sup>16</sup> O'ng qo'lida yettita yulduz bor edi, og'zidan o'tkir dudama qilich chiqib turardi. Uning yuzi kun qiziganda balqiydigan quyoshday porlardi.

<sup>17</sup> Uni ko'rishim bilanoq, oyoqlari ostiga o'likday yiqildim. U esa o'ng qo'lini ustimga qo'yib, shunday dedi: “Qo'rqma! Men Birinchi va Oxirgiman. <sup>18</sup> Barhayotman. O'lgan edim va mana, abadulabad tirikman. O'limning va o'liklar diyorining\* kalitlari Mendadir. <sup>19</sup> Shunday ekan, sen oldin ko'rganlaringni, hozir ko'rayotganlaringni va bundan keyin ko'radiganlaringning hammasini yozib bor. <sup>20</sup> Sen o'ng qo'limda ko'rgan yettita yulduz va yettita oltin chiroqpoyaning siriga kelsak, yetti yulduz — yetti jamoatning farishtalarini\*, yetti chiroqpoya esa yetti jamoatni bildiradi.”

## **2–BOB**

### **Efes shahridagi imonlilar jamoatiga**

<sup>1</sup> “Efesdagi imonlilar jamoatining farishtasiga\* yoz:

Yetti yulduzni o'ng qo'lida tutguvchi, yettita oltin chiroqpoya orasida yuruvchi Zot shunday demoqda: <sup>2</sup> sening ishlaringni, mehnatingni, bardoshingni bilaman,

badkirdorlarga toqat qilmasligingni ham bilaman. Havoriy bo'lmagan holda o'zlarini havoriy deb aytganlarni sen sinading, ularning yolg'onini fosh qilding. <sup>3</sup> Ha, bardoshlisan. Mening nomim uchun ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirib, holdan toymading. <sup>4</sup> Biroq senga bir e'tirozim bor: sen Menga bo'lgan ilk sevgingni unutding. <sup>5</sup> Eslagin axir, ilk sevgi bilan yashaganingda qanchalar yuksakda eding! Endi esa tavba qil, avvalgi ishlaringga qayt. Tavba qilmasang oldingga borib, chiroqpoyangni o'z joyidan olib tashlayman. <sup>6</sup> Ha, senda yana bir yaxshi fazilat bor: sen nikolaschilarning\* ishlaridan nafratlanasan. Men ham ulardan nafratlanaman.

<sup>7</sup> Kimning eshitar qulog'i bo'lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin. G'olib kelganlarga Xudoning jannatidagi hayot daraxti\* mevasidan yeyishni nasib etaman."

### **Smirna shahridagi imonlilar jamoatiga**

<sup>8</sup> "Smirnadagi\* imonlilar jamoatining farishtasiga yoz:

O'lib tirilgan, Birinchi va Oxirgi bo'lgan Zot shunday demoqda: <sup>9</sup> chekkan azoblaringni\*, kambag'alligingni bilaman. Aslida esa boysan! O'zini Xudoning xalqi deb ataganlar seni qanchalar haqoratlaganini ham bilaman. Ular Xudoning xalqi emas\*, balki shayton to'dasidir. <sup>10</sup> Boshingga tushadigan azob–uqubatlardan qo'rqma! Bilginki, iblis sizlarni sinash uchun orangizdan ba'zilarni zindonga tashlaydi, o'n kun\* davomida azob chekasizlar. O'lim xavfi ostida bo'lganingda ham sodiq qol, shunda Men senga hayot tojini beraman.

<sup>11</sup> Kimning eshitar qulog'i bo'lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin. G'olib kelganlar ikkinchi o'limdan\* hech qanday zarar ko'rmaydilar."

### **Pergamon shahridagi imonlilar jamoatiga**

<sup>12</sup> "Pergamondagi imonlilar jamoatining farishtasiga yoz:

O'tkir dudama qilich Sohibi shunday demoqda: <sup>13</sup> qayerda yashayotganingni\* bilaman. Shahringda shaytonning taxti joylashgan\*. Shunday bo'lsa–da, sen Mening nomimga qattiq bog'landing. Shayton yashayotgan o'sha shahringda sodiq shohidim Antipas\* o'ldirilganda ham, sen Menga bo'lgan imoningdan qaytmading. <sup>14</sup> Lekin senga bir oz e'tirozim bor: orangizda Balom ta'limotiga rioya qiluvchilar bor. Balom\* Isroil xalqini yo'ldan ozdirish yo'lini Boloqqa o'rgatgandi. Boloq esa Isroil xalqini butlarga keltirilgan qurbonlik go'shtini yeyishga va fahsh–zinoga undagandi. <sup>15</sup> Shuningdek, orangizda nikolaschilar\* ta'limotiga ergashuvchilar ham bor. <sup>16</sup> Endi tavba qil! Aks holda, Men zudlik bilan oldingga borib, og'zimdagi qilich bilan o'shalarga qarshi jang qilaman.

<sup>17</sup> Kimning eshitar qulog'i bo'lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin. G'olibga Men pinhon saqlangan mannani\* beraman. Unga oq toshni\* ham beraman. Bu toshning ustiga yangi bir ism yozilgan, toshni olgan kishidan boshqa hech kim u ismni bilmaydi."

### **Tiyatira shahridagi imonlilar jamoatiga**

<sup>18</sup> "Tiyatiradagi imonlilar jamoatining farishtasiga yoz:

Ko'zlari otash alangasiday chaqnoq, oyoqlari qizdirilgan bronzaday yarqiroq

Xudoning O'g'li shunday demoqda: <sup>19</sup> sening ishlaring, sevging, imoning, xizmatining va bardoshingni bilaman. Hozirda oldingidan ham ko'proq ish qilayotganingni bilaman.

<sup>20</sup> Lekin senga bir e'tirozim bor: sen Izabel\* degan bo'lmag'ur ayolga toqat qilib yuribsan. U o'zini payg'ambar deb, ta'limoti bilan qullarimni yo'ldan ozdiryapti. Ularni fahsh-zino qilishga va butlarga keltirilgan qurbonlik go'shtini yeyishga undayapti.

<sup>21</sup> Fahsh-zinodan tavba qilishi uchun unga muhlat berdim, ammo u tavba qilishdan bosh tortyapti. <sup>22</sup> Shunday ekan, Men uni xasta qilib, to'shakka yotqizib qo'yaman. U bilan birga fahsh-zino qilganlarni ham, bordi-yu, uning yo'lidan qaytmasalar, qattiq azob-uqubatlarga duchor qilaman. <sup>23</sup> Uning izdoshlarini\* o'ldiraman. Onglarni va yuraklarni bilguvchi Men ekanligimni shunda hamma jamoatlar bilib oladilar. Men orangizdagi har bir kishini o'z qilmishiga yarasha jazolayman.

<sup>24</sup> Tiyatiradagi ba'zilaringiz Izabelning bu ta'limotiga ergashmadingiz. Sizlar «shaytonning sirlari»\* deb atalgan narsalardan bexabarsizlar. Sizlarga shundan boshqa hech narsa yuklamayman: <sup>25</sup> faqat Men kelgunimga qadar, imoningizda qattiq turinglar, deyman. <sup>26</sup> G'olib kelganlarga va oxirigacha Mening irodamni bajarganlarga xalqlar ustidan hokimiyat beraman. <sup>27</sup> Ular xalqlarni temir xivchin ila boshqarishadi. Sopol ko'zani sindirganday xalqlarni parchalashadi\*. Otam Xudo Menga ato qilgan bu hokimiyat ularda bo'ladi. <sup>28</sup> Men ularga tong yulduzini\* ham beraman.

<sup>29</sup> Kimning eshitar qulog'i bo'lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin."

### 3-BOB

#### Sardis shahridagi imonlilar jamoatiga

<sup>1</sup> "Sardisdagi imonlilar jamoatining farishtasiga\* yoz:

Xudoga xizmat qiladigan yetti ruhni Boshqaruvchi, qo'lida yetti yulduzni Tutguvchi shunday demoqda: sening ishlaringni bilaman. Seni tirik deyishadi, ammo o'liksan.

<sup>2</sup> Sening ishlaring Xudoyim nazarida tugal emasligini bildim. Uyg'on! Jamoating nobud bo'lmoqda. Imonini saqlab qolganlarga\* qo'shilib, jamoatingni mustahkamla. <sup>3</sup> Nimani eshitib o'rgangan bo'lsang eslagin. O'shalarga rioya qilgin. Gunohlaringdan tavba etgin. Agar uyg'onmasang, Men ustingga o'g'riday bostirib kelaman. Sen esa qaysi soatda kelishimni bilmaysan. <sup>4</sup> Biroq Sardisda o'z kiyimlarini bulg'amagan bir necha odamlaring qolgan. Ular Men bilan birga oq kiyimda yuradilar, ular bunga loyiqdirlar.

<sup>5</sup> G'olib kelganlar ular singari, shunday oq kiyim kiyadilar. Men ularning nomlarini hayot kitobidan\* o'chirmayman, Otam Xudo va Uning farishtalari oldida nomlarini tan olaman.

<sup>6</sup> Kimning eshitar qulog'i bo'lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin."

#### Filadelfiya shahridagi imonlilar jamoatiga

<sup>7</sup> "Filadelfiyadagi imonlilar jamoatining farishtasiga yoz:

Shoh Dovudning kaliti\* muqaddas va haq Zotdadir. U eshikni ochganda, uni hech kim bekita olmaydi. U bekitganda, hech kim ocholmaydi. O'sha Zot shunday demoqda:

<sup>8</sup> sening ishlaringni bilaman. Mana, oldingda bir eshik ochdim, uni hech kim bekita olmaydi. Kuching kamligini Men bilaman. Shunga qaramay, sen so'zimga rioya qilding, Mendan tonmading. <sup>9</sup> Shayton to'dasidan bo'lganlarni nima qilishimni o'zing ko'rasan. Ular o'zlarini Xudoning xalqi deb ataydilar, ammo gaplari yolg'on, ular Xudoning xalqi

emaslar\*. Men ularni shunday ko'ygga solamanki, kelib sening oyog'ingga yiqiladilar. Men seni qanchalik sevganimni bilib oladilar. <sup>10</sup> Sen Mening sabrli bo'lish haqidagi amrimga itoat etding. Shunday ekan, yer yuzida yashovchilarni sinash uchun yuboriladigan kulfat vaqtidan Men seni asrayman. <sup>11</sup> Men tezda kelaman. Imoningda mahkam tur, toki hech kim tojingni tortib olmasin. <sup>12</sup> G'olib kelganlarni Men Xudoyimning Ma'badida ustun qilaman. Shunda ular zinhor Ma'badni tark etmaydilar. Ularning peshanalariga Men Xudoyimning nomini va Xudoyimga qarashli shaharning nomini yozaman. Bu shahar — Xudoyim samodan yuboradigan yangi Quddusdir. G'olibning peshanasiga Men O'zimning yangi nomimni ham yozaman.

<sup>13</sup> Kimning eshitar qulog'i bo'lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin.”

### **Laodikiya shahridagi imonlilar jamoatiga**

<sup>14</sup> “Laodikiyadagi imonlilar jamoatining farishtasiga yoz:

Ishonchli va haq Shohid, Xudo yaratgan borliqning Asoschisi\*, Omin\* deb nom olgan Zot shunday demoqda: <sup>15</sup> sening ishlaringni bilaman, sen na sovuq va na issiqsan\*. Eh, qaniydi, yo sovuq, yo issiq bo'lsang! <sup>16</sup> Sen issiq ham, sovuq ham emas, balki iliq bo'lganing uchun Men seni qusib yuboraman. <sup>17</sup> Sen: «Boyman, o'zimga to'qman, hech narsadan kam—ko'stim yo'q», — deysan. Aslida esa ayanchli, achinarli ahvolda ekaningni, qashshoq, ko'r va yalang'och ekaningni bilmaysan! <sup>18</sup> Senga maslahat beraman: boyishing uchun Mendan olovda toblangan oltinni sotib ol. Sharmandali yalang'ochligingni yopish uchun ekingga oq kiyim, ko'rishing uchun ko'zlaringga surtadigan malhamni Mendan sotib ol\*. <sup>19</sup> Men kimni sevsam, aybini ko'rsataman, tarbiyalayman. Shunday ekan, shijoatli bo'l, gunohlaring uchun tavba qil.

<sup>20</sup> Mana, Men eshik oldida turib, taqillatyapman. Kim ovozimni eshitib eshikni ochsa, Men o'shaning oldiga kiraman. Men u bilan va u Men bilan ovqatni baham ko'ramiz.

<sup>21</sup> G'olib kelganlarni Men yonimda, taxtimda o'tirishga haqli qilaman. Zotan, Men ham g'olib kelganimda Otam Xudo bilan birga Uning taxtida o'tirdim.

<sup>22</sup> Kimning eshitar qulog'i bo'lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin.”

## **4-BOB**

### **Samodagi sajda**

<sup>1</sup> Shundan keyin men osmonda lang ochiq bir eshikni ko'rdim. Ilgari menga gapirgan karnay sadosiga o'xshash o'sha ovoz yana eshitildi. U shunday dedi: “Bu yoqqa chiq, bundan keyin nima yuz berishini senga ko'rsataman.”

<sup>2</sup> Shu payt Muqaddas Ruh meni qamrab oldi. Men samoda turgan bir taxtni ko'rdim, unda bir Zot o'tirar edi. <sup>3</sup> O'tirgan Zotning qiyofasi qimmatbaho yashma va la'l toshlariday yarqirardi. Taxt atrofida zumrad tusidagi kamalak jilvalanardi. <sup>4</sup> Taxtning tevaragida yana yigirma to'rtta taxt turardi. Bu taxtlarda oq kiyim kiygan, boshlarida oltin tojlari bo'lgan yigirma to'rt nafar oqsoqol o'tirar edi. <sup>5</sup> Taxtdan chaqmoq chaqardi, momaqaldiroqning gulduros sadosi kelardi. Taxt oldida Xudoning yetti ruhi bo'lgan yettita mash'ala yonib turardi. <sup>6</sup> Taxtning oldida oyna singari dengizga o'xshash, billurday tiniq bir narsa bor edi.

Taxtning atrofida to'rtta jonli mavjudot turar edi, ularning oldi va orqasi ko'zlar bilan qoplangan edi. <sup>7</sup> Birinchi mavjudot sherga, ikkinchisi buqaga o'xshar edi, uchinchi

mavjudotning yuzi odamning yuziga, to'rtinchisi esa uchayotgan burgutga o'xshar edi.

<sup>8</sup> Bu to'rtta mavjudotning har birida oltitadan qanot bor edi. Ularning hamma yog'i ko'zlar bilan qoplangan edi, hatto qanotlarining tagida ham ko'zlari bor edi. Ular kechayu kunduz tinmay shunday so'zlarni takrorlar edilar:

“Muqaddasdir, muqaddasdir,  
Muqaddasdir Qodir Xudo — Egamiz.  
U bor bo'lgan, hozir ham bor,  
Kelajakda ham bor bo'lar!”

<sup>9</sup> Mavjudotlar taxtda O'tirganni, to'rtinchi barhayot Zotni ulug'lashardi, izzat–ikrom ko'rsatib, shukronalar aytishardi. <sup>10</sup> Shunda yigirma to'rt nafar oqsoqol taxtdagi to'rtinchi barhayot Zot oldida yerga muk tushib, sajda qilishardi. Tojlarini taxt oldiga qo'yib, shunday deyishardi:

<sup>11</sup> “Yo Egamiz, yo Xudoyimiz!  
Sen qudratlisan!  
Ulug'vorligu izzatga Sen loyiqsan!  
Zero, butun borliqni Sen yaratgansan,  
Hamma narsa Sening irodang ila vujudga keldi, yaratildi.”

## 5-BOB

### Muhrlangan o'rama qog'oz va Qo'zi

<sup>1</sup> Men taxtda o'tirgan Zotning o'ng qo'lida bir o'rama qog'ozni\* ko'rdim. O'ramning oldi va orqa tomonlarida yozuvlari bor bo'lib, u yettita muhr bilan muhrlangan edi.

<sup>2</sup> So'ng men kuchli bir farishtani ko'rdim. U baland ovozda: “Muhrlarni yechishga, o'ramni ochishga kim loyiq?” deb so'radi. <sup>3</sup> Biroq na osmonda, na yer yuzida, na yer ostidagi olamda o'ramni ocha oladigan yoki ichiga nazar sola oladigan biron kimsa bor edi. <sup>4</sup> Men achchiq–achchiq yig'lay boshladim, chunki o'ramni ochishga, hatto uning ichiga nazar solishga loyiq biron kimsa topilmagandi. <sup>5</sup> Shunda oqsoqollardan biri menga dedi: “Yig'lama! Ana qara, Yahudo qabilasidan bo'lgan Sher — Dovud urug'idan chiqqan Zot\* g'alaba qozondi. U o'ramning yettita muhrini yechishga va o'ramni ochishga qodirdir.”

<sup>6</sup> Shunda men taxtning oldida, to'rtta jonli mavjudot va oqsoqollar qurshovida turgan bir Qo'zini ko'rdim. U go'yo bo'g'izlanganday edi. Qo'zining yetti shoxi va yetti ko'zi bor edi. Bular Xudo butun yer yuziga yuborgan yettita ruhdur. <sup>7</sup> Qo'zi kelib, taxtda o'tirgan Zotning o'ng qo'lidan o'ramni oldi. <sup>8</sup> U o'ramni olganda, to'rtta mavjudot va yigirma to'rt oqsoqol Qo'zining oldida muk tushishdi. Har birining qo'lida bir arfa va xushbo'y tutatqilarga to'la oltin kosalar bor edi. Xushbo'y tutatqilar — Xudo azizlarining duoyu ibodatlarini demakdir. <sup>9</sup> Ular quyidagicha yangi qo'shiq aytishar edi:

“Sen o'ramni olishga,  
Uning muhrlarini yechishga loyiqsan!  
Chunki Sen bo'g'izlangan eding,  
O'z qoning evaziga har bir qabila, millat, elatu xalqdan

Xudo uchun odamlarni qutqarib olding.

<sup>10</sup> Ulardan Shohlik yaratding,  
Ularni Xudoyimizga xizmat qiladigan  
Ruhoniylar qilib tayinlading.  
Ular yer yuzida hukm suradilar.”

<sup>11</sup> Keyin men taxtning, mavjudotlar va oqsoqollarning atrofida ko'p farishtalarni ko'rdim, ularning ovozlari eshitdim. Ularning sanog'iga yetib bo'lmas, ming-minglab, o'n minglab edilar. <sup>12</sup> Ular baland ovozda shunday derdilar:

“Bo'g'izlangan Qo'zi hamdlarga loyiqdir!  
Kuchu davlat, donoligu qudrat Sohibiga  
Shon-sharaflar bo'lsin!”

<sup>13</sup> Shunda men yeru osmondagi, yer ostidagi, dengizdagi jamiki jonzotlarning ovozlari eshitdim. Ularning hammasi shunday deb kuylayotgan edilar:

“Taxtda o'tirgan Zotga va Qo'ziga  
Abadulabad hamdlar bo'lsin!  
Bu qudrat Sohiblariga  
Abadulabad shon-sharaflar bo'lsin!”

<sup>14</sup> To'rtta mavjudot: “Omin!” — dedi. Oqsoqollar esa muk tushib, sajda qildilar\*.

## 6-BOB

### Muhrlar

<sup>1</sup> Keyin men Qo'zining yetti muhrdan birini yechganini ko'rdim. O'sha paytda to'rtta jonli mavjudotdan biri momaqaldiroqqa o'xshash ovoz bilan: “Kel!” — deb aytganini eshitdim. <sup>2</sup> Shunda men bir oq otni ko'rdim. Ot ustida kamoni bor suvori o'tirardi. Unga bir toj berildi. U bosqinchi bo'lib, dushmanlarini bosib olish uchun yo'lga chiqdi.

<sup>3</sup> Qo'zi ikkinchi muhrni yechganda, men ikkinchi mavjudotning: “Kel!” — deb aytganini eshitdim. <sup>4</sup> Shu payt boshqa bir ot chiqib keldi. U qip-qizil rangda edi. Xalqlar bir-biriga qirg'in keltirsin deb, bu ot ustidagi suvoriga dunyoni tinchlikdan mahrum qilish qudrati berilgandi. Unga katta qilich ham berildi.

<sup>5</sup> Qo'zi uchinchi muhrni yechganda, men uchinchi mavjudotning: “Kel!” — deb aytganini eshitdim. Shunda men qora otni ko'rdim. Bu ot ustidagi suvorining qo'lida tarozi bor edi. <sup>6</sup> Men to'rtta mavjudotning orasidan chiqqan ovozga o'xshash bir sadoni eshitdim. O'sha ovoz dedi: “Odamlar bir kunlik ish haqiga\* bor-yo'g'i bir kosa bug'doy yoki uch kosa\* arpa sotib oladigan bo'lsin. Ammo zaytun bog'lari va uzumzorlarga zarar yetkazma!”

<sup>7</sup> Qo'zi to'rtinchi muhrni yechganda, men to'rtinchi mavjudotning: “Kel!” deb aytganini eshitdim. <sup>8</sup> Shunda men ko'kimtir rangdagi bir otni ko'rdim. Ot mingan suvorining nomi O'lim edi. Uning ketidan Qabr ergashib kelayotgan edi. Ularga dunyoning to'rtidan bir qismi ustidan hokimiyat berilgandi. Ular yerdagi odamlarni qilich, qahatchilik, o'lat va yovvoyi hayvonlar orqali o'ldirishlari mumkin edi.

<sup>9</sup> Qo'zi beshinchi muhrni yechganda, men qatl qilingan odamlarning jonlarini qurbongoh ostida ko'rdim. Ular Xudoning kalomi va bergan shahodatlariga sodiq qolganlari uchun o'ldirilgan edilar. <sup>10</sup> Ular qattiq faryod qilib, shunday derdilar: "Yo Egamiz, Sen muqaddas va haqdirsan. Sen qachon dunyoda yashayotganlarni hukm etasan? Qachon ulardan o'limimiz uchun qasos olasan?" <sup>11</sup> Bu jonlarning har biriga oq libos berildi. Ularga: "Qisqa bir muddat dam olib turinglar", deb aytili. Boshqa xizmatchi birodarlar ham ular singari o'ldirilib, o'ldirilganlarning soni belgilangan miqdorga yetguncha ular kutib turishlari kerak edi.

<sup>12</sup> Qo'zi oltinchi muhrni yechayotganini men kuzatib turdim. Shunda qattiq zilzila ro'y berdi. Quyosh qora junday tim qora bo'lib qoldi, to'lin oy esa qonday qip-qizil tusga kirdi. <sup>13</sup> Osmondagi yulduzlar yerga quladi. Ha, kuchli shamol daraxtni silkitib anjirni to'kkanday ular yerga to'kildi. <sup>14</sup> Osmon qog'ozday o'ralib, yo'q bo'lib ketdi. Har bir tog' va orol joyidan siljib ketdi. <sup>15</sup> Dunyoning shohlari, aslzodalariyu lashkarboshilari g'orlarga va tog'larning qoyalari orasiga yashirindilar. Ular bilan birga boylaru kuchlilar, qulu erkin odamlar yashirindilar. <sup>16</sup> Ular tog'u qoyalarga shunday deb yolvorar edilar: "Ustimizga qulang, taxtda o'tirgan Zotning nazaridan va Qo'zining g'azabidan bizni yashiring!" <sup>17</sup> Axir, Ular g'azabini sochadigan qo'rqinchli kun keldi! Bu kunga kim bardosh bera olardi?!"

## 7-BOB

### Muhrlangan 144.000 kishi

<sup>1</sup> Shundan keyin men yer yuzining to'rt burchagida turgan to'rt nafar farishtani ko'rdim. Ular to'rt shamolni tutib turar edilar. Shamolning esishiga, yerga, dengizga, biron daraxtga tegishiga yo'l qo'ymas edilar. <sup>2</sup> So'ngra men sharqdan kelayotgan boshqa bir farishtani ko'rdim. U barhayot Xudoning muhrini olib kelayotgan edi. Yeru dengizga zarar yetkazish qudrati berilgan to'rtta farishta u baland ovozda shunday xitob qildi: <sup>3</sup> "Yerga, dengizga va daraxtlarga zarar yetkazmay turinglar. Xudoyimizning qullari peshanalariga biz muhr bosib olaylik!"

<sup>4</sup> Men muhr bosilgan kishilarning sonini eshitdim. Isroil qabilalarining barchasidan 144.000 kishiga muhr bosilgan edi:

<sup>5</sup> Yahudo qabilasidan 12.000 kishi,

Ruben qabilasidan 12.000,

Gad qabilasidan 12.000,

<sup>6</sup> Osher qabilasidan 12.000,

Naftali qabilasidan 12.000,

Manashe qabilasidan 12.000,

<sup>7</sup> Shimo'n qabilasidan 12.000,

Levi qabilasidan 12.000,

Issaxor qabilasidan 12.000,

<sup>8</sup> Zabulun qabilasidan 12.000,

Yusuf qabilasidan 12.000,

Benyamin qabilasidan 12.000 kishi.



## Oq kiyimli olomon

<sup>9</sup> Shundan keyin men sanog'iga yetib bo'lmaydigan katta bir olomoni ko'rdim. Turli xil xalq, qabila, elatu millatlarga mansub bo'lgan bu odamlar taxt oldida, Qo'zining huzurida turishardi. Hammasining egnida oq libos, qo'llarida palma daraxti shoxlari\* bor edi. <sup>10</sup> Ular ovozlari boricha shunday hayqirishardi: "Taxtda o'tirgan Xudoyimiz bilan Qo'zi najot berish qudratiga egadirlar!" <sup>11</sup> Hamma farishtalar taxt atrofida, oqsoqollar va to'rtta mavjudot atrofida turar edilar. Ular taxt oldida muk tushib, Xudoga sajda qilgan holda <sup>12</sup> shunday deyishardi:

"Omin!  
Xudoyimizga hamdu sanolar bo'lsin!  
Donoligu kuch-qudrat Sohibiga  
Abadulabad shukronayu shon-sharaflar bo'lsin!  
Omin."

<sup>13</sup> Oqsoqollardan biri mendan so'radi:

— Oq libos kiygan bu odamlar kim? Ular qayerdan kelganlar?

<sup>14</sup> — Taqsir, bunisi o'zingizga ayon, — deya javob berdim men. U menga shunday dedi:

— Bular qattiq quvg'inlardan o'tib kelganlar. Ular liboslarini Qo'zining qoni bilan yuvib oqartirganlar. <sup>15</sup> Shuning uchun ular Xudoning taxti oldida turadilar va Uning Ma'badida kecha-kunduz xizmat qiladilar. Taxtda O'tirgan esa ularni O'z panohida asraydi. <sup>16</sup> Ular endi och qolmaydilar, chanqamaydilar. Quyosh ham, oftob ham ularni urmaydi. <sup>17</sup> Zotan, taxt oldida turgan Qo'zining O'zi ularga cho'ponlik qiladi. Ularni hayotbaxsh suv buloqlariga olib boradi. Xudo ularning ko'zidagi har bir tomchi yoshni artib qo'yadi.

## 8-BOB

### Yettinchi muhr

<sup>1</sup> Qo'zi yettinchi muhrni yechganda, samo yarim soatcha sukunatda qoldi. <sup>2</sup> Men Xudoning huzurida turgan yettita farishtani ko'rdim. Ularning har biriga bittadan karnay berildi.

<sup>3</sup> Boshqa bir farishta kelib, qurbongohning oldida turdi. Uning qo'lida oltin olovkurak bor edi. Unga ko'p xushbo'y tutatqilar berildi. U bu tutatqilarni barcha Xudo azizlarining ibodatlariga qo'shib, taxt oldida turgan oltin qurbongoh ustida nazr qilishi kerak edi.

<sup>4</sup> Tutatqilarning tutuni Xudo azizlarining ibodatlari bilan birga farishtaning qo'lidan yuqoriga — Xudoning huzuriga ko'tarildi. <sup>5</sup> Farishta olovkurakni olib, uni qurbongohdagi otash bilan to'ldirdi—da, yer yuziga uloqtirib yubordi. O'shanda momaqaldiroqning gulduros sadosi yangrab, chaqmoq chaqdi, zilzila boshlandi.

### Oxirzamon karnaylari

<sup>6</sup> Yettita farishta qo'llaridagi karnaylarni chalishga tayyorlandilar.

<sup>7</sup> Birinchi farishta karnayini chaldi. Shunda do'l, olov va qon yer yuziga yog'dirildi. Yerning uchdan bir qismi yonib ketdi, daraxtlarning uchdan biri va hamma o't-o'lanlar kuyib ketdi.

<sup>8</sup> Ikkinchi farishta karnayini chaldi. Shunda lovullab yonayotgan ulkan toqqa o'xshash bir narsa dengizga otildi. Dengizning uchdan bir qismi qonga aylandi.

<sup>9</sup> Dengizdagi jonzotlarning uchdan bir qismi o'ldi, kemalarning uchdan bir qismi halokatga uchradi.

<sup>10</sup> Uchinchi farishta karnayini chaldi. Shunda osmondan ulkan bir yulduz tushdi. Mash'ala bo'lib yonayotgan bu yulduz daryolarning uchdan bir qismiga va suv buloqlariga tushdi. <sup>11</sup> Bu yulduzning nomi Erman\* edi. Suvlarning uchdan bir qismi achchiq bo'ldi. Achchiq suvdan ko'p odamlar o'ldi.

<sup>12</sup> To'rtinchi farishta karnayini chaldi. Quyoshning uchdan bir qismi, oying va yulduzlarning uchdan bir qismi zarba yeb, qorong'ilashdi. Natijada kunduzning ham, tunning ham uchdan bir qismi yorug'likdan mahrum bo'ldi.

<sup>13</sup> Keyin men boshim uzra uchib ketayotgan bir burgutni\* ko'rdim. U baland ovozda shunday deganini eshitdim: "Yer yuzida yashayotganlarning holiga voy! Holiga voy! Holiga voy! Axir, qolgan uchta farishta hozir karnaylarini chalishadi."

## 9–BOB

### Beshinchi karnay: jahannam qa'ridan chiqqan chigirtkalar

<sup>1</sup> Beshinchi farishta karnayini chaldi. Shunda men osmondan yerga tushgan bir yulduzni\* ko'rdim. Unga jahannam qa'rining kaliti berilgan edi. <sup>2</sup> U jahannam qa'rini ochdi. Ulkan o'choqdan chiqayotganday, jahannam qa'ridan tutun burqirab chiqdi. Bu tutundan quyosh va havo qorong'ilashib ketdi. <sup>3</sup> Tutundan chigirtkalar\* chiqib, yer yuziga tarqaldi. Ularga yerdagi chayonlarning kuchiga o'xshash bir kuch berilgan edi.

<sup>4</sup> Chigirtkalarga: "Yer yuzidagi o't-o'lanlarga, bironta o'simlik yoki daraxtga tegmanglar", deb aytilgan edi. Ular faqat peshanalarida Xudoning muhri\* bo'lmagan odamlarga zarar yetkazishlari mumkin edi. <sup>5</sup> Odamlarni o'ldirish chigirtkalarga man etilgandi. Ular odamlarga besh oy davomida azob berishlari kerak edi. Bu azob chayon chaqqandagi azobga o'xshardi. <sup>6</sup> O'sha besh oy davomida odamlar o'lim izlaydilar, ammo topolmaydilar. O'limni orzu qiladilar, ammo o'lim ulardan qochadi.

<sup>7</sup> Chigirtkalarining ko'rinishi jangga shaylangan otlarga o'xshar edi. Ularning boshida oltin tojga o'xshagan narsalar bor, yuzlari esa odamsimon edi. <sup>8</sup> Sochlari ayollarning sochiga, tishlari esa arslon tishiga o'xshar edi. <sup>9</sup> Ko'kraklari temir sovutday edi. Qanotlarining tovushi esa urushga yelib borayotgan tumonat jang aravalarining tovushini eslatardi. <sup>10</sup> Chayonlarnikiga o'xshash dumlari va nishlari bor edi. Insonlarga besh oy davomida zarar yetkazish uchun olgan kuch–qudrati o'sha dumlarida edi.

<sup>11</sup> Ularga jahannam qa'rining farishtasi hukmronlik qilardi. Bu farishtaning oti ibroniychada Abaddo'n, yunonchada Apollion, ya'ni "halok qiluvchi" demakdir.

<sup>12</sup> Birinchi halokat o'tdi, bundan keyin yana ikkita halokat bor.

### Oltinchi karnay: otliq qo'shinlar

<sup>13</sup> Oltinchi farishta karnayini chaldi. Shunda men Xudo huzuridagi oltin qurbongohning to'rtta shoxi\* tomonidan kelayotgan bir ovozni eshitdim. <sup>14</sup> Bu ovoz karnay tutgan oltinchi farishtaga shunday dedi: "Buyuk Furot daryosi bo'yida bog'lab qo'yilgan to'rt farishtani yechib yubor!"

<sup>15</sup> Bu to'rtta farishta o'sha soat, o'sha kun, o'sha oy va o'sha yil uchun saqlab kelingan edi. Ular insoniyatning uchdan bir qismini qirib tashlash uchun bo'shatildi. <sup>16</sup> Ular ikki

yuz millionlik otlıq qo'shinni boshqarishardi, men ularning sonini eshitdim. <sup>17</sup> Men ko'rgan vahiydagi otlar bilan suvorilarning ko'rinishi quyidagicha edi: suvorilarning sovutlari olovday qizil, to'q ko'k va oltingugurtday sariq rangda edi. Otlarning boshi arslon boshiga o'xshar, og'izlaridan olov, tutun va oltingugurt otilib chiqardi.

<sup>18</sup> Insoniyatning uchdan bir qismi shu uch balodan — olov, tutun va oltingugurtdan o'ldi.

<sup>19</sup> Otlarning kuchi ham og'zida, ham dumlarida edi. Ularning dumlari ilonlarga o'xshardi. Bu ilonlar odamlarni chaqib, jarohatlardi.

<sup>20</sup> Bu balolardan omon qolgan insonlar esa o'zlari yasagan butlaridan voz kechmadilar, jinlarga sig'inishdan qaytmadilar. Ko'rmaydigan, eshitmaydigan, yurmaydigan oltin, kumush, bronza, tosh va yog'och butlarga sajda qilaverdilar.

<sup>21</sup> Qotilliklaridan, issiq-sovuq qilishdan, fahsh-zino va o'g'riliklaridan qaytmadilar.

## 10-BOB

### Farishta va kichkina o'rama qog'oz

<sup>1</sup> Men samodan tushayotgan boshqa kuchli bir farishtani ko'rdim. U bulutga burkangan edi. Uning boshi uzra kamalak bor edi. Yuzi quyoshday porlar, oyoqlari olov ustunlariday lovullab turar edi. <sup>2</sup> Uning qo'lida kichkinagina ochilgan o'rama qog'oz\* bor edi. U o'ng oyog'ini dengiz ustiga, chap oyog'ini yer yuziga qo'yganicha, <sup>3</sup> sher o'kirganday qattiq hayqirdi. U hayqirganda yetti momaqaldiroq ham tilga kirib, gulduros ovoz bilan gapira boshladi. <sup>4</sup> Yetti momaqaldiroq gapirganda, men ularning gaplarini yozmoqchi bo'ldim. Lekin samodan bir ovoz shunday dedi:

— Yetti momaqaldiroqning gaplarini yozma, ularni sir saqla!

<sup>5</sup> Dengiz va yer yuzida turgan, men ko'rgan farishta o'ng qo'lini osmonga ko'tardi. <sup>6</sup> <sup>7</sup> U to'ab ad barhayot Xudo haqi ont ichdi. Yeru osmonni, dengiz va ularni to'ldirgan jamiki jonivorlarni yaratgan Xudo haqi ont ichib, shunday dedi:

— Xudo payg'ambar qullariga O'zining sir tutgan rejasini ma'lum qilgandi. Yettinchi farishta karnay chalganda, Xudo o'sha rejasini amalga oshiradi. Endi kechiktirmaydi.

<sup>8</sup> Samodan kelgan ovoz menga yana dedi:

— Bor, dengiz va yer ustida turgan farishtaning qo'lidan ochiq o'rama qog'ozni ol.

<sup>9</sup> Men farishtaning yoniga borib:

— O'rama qog'ozni menga bering, — dedim. Farishta menga dedi:

— Mana, ol! Uni yegin! U ichingni achitib yuboradi, og'zingga esa asalday shirin ta'm beradi.

<sup>10</sup> Men o'rama qog'ozni farishtaning qo'lidan olib yedim. U og'zimda asaldek shirin edi. Ammo uni yutganimdan keyin ichim achishib ketdi.

<sup>11</sup> So'ng menga shunday deb aytishdi:

— Sen yana ko'p elatlar haqida, xalqlar, millatlaru shohlar haqida bashorat qilishing kerak.

## 11-BOB

### Oxirzamonning ikki shohidi

<sup>1</sup> Menga o'lchash uchun bir qamish berildi, so'ng shunday deb aytili: "Bor, Xudoning Ma'badini va qurbongohni o'lchab chiq. U yerda sajda qiluvchilarni sanagin.

<sup>2</sup> Ma'badning tashqi hovlisini esa qoldir, uni o'lchama. Chunki u yer butparastlarga berilgan. Ular muqaddas shaharni\* 42 oy oyoq osti qiladilar. <sup>3</sup> Men ikki shohidimga qudrat beraman. Ular egnilariga qanor kiyib\*, 1260 kun\* davomida va'z qiladilar.

<sup>4</sup> Bu ikki shohid — butun dunyo Egasining huzurida turgan ikkita zaytun daraxti va ikkita chiroqpoyadir. <sup>5</sup> Bordi—yu, birontasi ularga ozor yetkazmoqchi bo'lsa, ularning og'zidan olov chiqib, o'sha dushmani yeb bitiradi. Ularga ozor berishni istaganlar shu yo'sinda halok bo'ladi. <sup>6</sup> Bu ikki shohid va'z qiladigan kunlarda yomg'ir yog'masligi uchun Xudo ularga osmonni berkitish qudratini bergan. Ularga yana suvni qonga aylantirish va yer yuzini istagan vaqtlarida turli baloyu ofatlarga yo'liqtirish qudrati berildi.

<sup>7</sup> Ular shahodat berib bo'lganlaridan keyin, tubsiz chuqurlikdan chiqqan bir maxluq\* ular bilan jang qiladi, ularni yengib, o'ldiradi. <sup>8</sup> Ularning jasadlari buyuk shaharning\* ko'chasida yotadi. Shohidlarning Rabbiysi Iso ham o'sha shaharda xochga mixlangan edi. O'sha shaharning ramziy nomi Sado'm va Misrdir\*. <sup>9</sup> Barcha elu qabilalar, millatu xalqlardan bo'lgan odamlar uch yarim kun davomida ularning jasadlarini tomosha qiladilar. Ularni dafn etishga ruxsat berishmaydi. <sup>10</sup> Yer yuzida yashayotganlar shohidlarning o'limidan sevinib xursandchilik qilishadi. Bir—birlariga hadyalar yuborishadi. Chunki bu ikkala payg'ambar yer yuzida yashovchilarga ko'p azob bergan edi.”

<sup>11</sup> Ammo uch yarim kundan keyin ikkala payg'ambarning vujudiga Xudoning hayot nafasi kirdi. Shunda ular oyoqqa turdilar. Ularni ko'rganlarning hammasini qattiq vahima bosdi. <sup>12</sup> Ikki payg'ambar samodan kelgan baland bir ovozning: “Bu yoqqa chiqinglar!” — deganini eshitishdi, shunda ular dushmanlarining ko'z o'ngida bulut ichida samoga ko'tarilishdi. <sup>13</sup> O'sha zahoti shiddatli zilzila yuz berdi. Shaharning o'ndan bir qismi quladi. Zilzilada yetti ming kishi nobud bo'ldi. Qolganlari esa vahimaga tushib, Samoviy Xudoni ulug'lashdi.

<sup>14</sup> Ikkinchi halokat o'tdi. Mana, uchinchi halokat tez yaqinlashyapti.

### **Yettinchi karnay: samodagi hamdu sano**

<sup>15</sup> Yettinchi farishta karnayini chaldi. Samoda baland ovozlar yangradi. Ular shunday deb aytayotgan edilar:

“Endi bu dunyo hukmronligi  
Egamizga va Uning Masihiga tegishlidir.  
Ular abadulabad hukmronlik qilishadi.”

<sup>16</sup> Shunda Xudoning huzuridagi o'z taxtlarida o'tirgan yigirma to'rt nafar oqsoqol yuz tuban yerga muk tushdilar. Ular Xudoga sajda qilib dedilar:

<sup>17</sup> “Yo Qodir Xudo — Egamiz!  
Sen bor bo'lgansan, hozir ham borsan\*.  
Biz Senga tashakkurlar aytamiz.  
Axir, Sen buyuk qudratingni namoyon etding,  
Hukmronlik qila boshlading.

<sup>18</sup> Xalqlar Sendan g'azablangandi,  
Endi Sen ham g'azabga minding.

Endi vaqti keldi o'liklarni hukm qilishga,  
 Payg'ambar qullaringni, azizlaringni mukofotlashga,  
 Sendan qo'rqan kattayu kichikni taqdirlashga.  
 Yerni vayron qilganlarni vaqti keldi xonavayron qilishga!"

<sup>19</sup> So'ng Xudoning samodagi Ma'badi ochildi. Ma'badda Xudoning Ahd sandig'i ko'rindi\*. O'shanda chaqmoq chaqib, momaqaldiroqning gulduros sadolari yangradi, zilzila boshlandi, shiddatli do'l yog'di.

## 12-BOB

### Tuqqan ayol va ajdarho

<sup>1</sup> Osmonda ajoyib bir alomat ro'y berdi: quyoshga burkangan bir ayol paydo bo'ldi. Uning oyoqlari ostida oy va boshida o'n ikki yulduzli toj bor edi. <sup>2</sup> Ayol homilador bo'lib, uni to'lg'oq tutar, dard bilan baqirar edi.

<sup>3</sup> So'ngra osmonda boshqa bir alomat ko'rindi: yetti boshli, o'nta shoxli ulkan qizil ajdarho paydo bo'ldi. Uning har bir boshida bittadan toji bor edi. <sup>4</sup> U dumi bilan osmondagi yulduzlarning uchdan bir qismini sudrab, yerga uloqtirdi. Ajdarho to'lg'oq tutgan ayolning oldiga turib oldi. Chaqaloq tug'ilishi bilanoq ajdarho uni yutib yubormoqchi edi. <sup>5</sup> Ayol o'g'il ko'rdi. Kelajakda barcha xalqlarni temir xivchin bilan boshqaradigan\* bu o'g'lon darhol olib ketildi. U Xudoning huzuriga, taxtga keltirildi. <sup>6</sup> Ayol esa cho'lga qochib bordi. U yerda 1260 kun davomida ayolga g'amxo'rlik qilishsin deb, Xudo maxsus joy hozirlab qo'ygan edi.

<sup>7</sup> Shundan keyin samoda jang boshlandi. Mikoyil\* va uning farishtalari ajdarhoga qarshi chiqishdi. Ajdarho ham o'zining farishtalari bilan Mikoyilga qarshi jang qildi.

<sup>8</sup> Ammo ajdarho talafot ko'rdi. Unga va uning farishtalariga endi samoda joy yo'q edi.

<sup>9</sup> Ulkan ajdarho yerga uloqtirildi. Butun dunyoni aldagan bu almisoq ilon iblis va shayton deb atalgan. U o'z farishtalari bilan yerga uloqtirildi.

<sup>10</sup> Shunda men samodan baland ovozda aytilgan bu so'zlarni eshitdim:

"Xudoyimiz najotu qudratini ayon qildi,  
 Mana, Uning Shohligi keldi.  
 Xudoning Masihi hokimiyati o'rnatildi.  
 Axir, birodarlarimizning tuhmatchisi yerga uloqtirildi,  
 Ha, Xudoyimiz huzurida kecha-kunduz  
 Ularga tuhmat qilayotgan iblis pastga otildi.

<sup>11</sup> Ular Qo'zining qoni tufayli,  
 O'zlarining shahodat so'zi tufayli iblisni yengdilar.  
 Hatto o'lim xavfi ostida bo'lganlarida jonlarini ayamadilar.

<sup>12</sup> Ey osmonu falak, xursand bo'!  
 Unda yashovchilar, shodlaning!  
 Ammo, ey yeru dengiz, sizning holingizga voy!  
 Zero, iblis oldingizga tushdi.  
 Vaqti oz qolganini bilib, u qahru g'azabga mindi."

<sup>13</sup> Ajdarho o'zining yer yuziga uloqtirilganini anglagach, o'g'il bola tuqqan ayolni ta'qib

qila boshladi. <sup>14</sup> Ayol o'sha ilondan qocha olishi uchun unga katta burgutning ikki qanoti berildi. U sahroga — uch yarim yil\* davomida unga g'amxo'rlik qilinadigan joyga qochib borishi kerak edi. <sup>15</sup> Ilon esa, uni sel oqizib ketsin deb, og'zini ochdi—da, ayolning ketidan daryoday suv oqizdi. <sup>16</sup> Ammo yer ayolga yordam berdi. Yer dahanini ochib, ajdarho oqizgan daryoni yutib yubordi. <sup>17</sup> Ajdarho ayoldan qattiq g'azablandi. U ayolning boshqa farzandlari bilan jang qilgani chiqdi. Ayolning farzandlari — Xudoning amriga itoat qilgan va Isoning shahodatiga sodiq qolgan odamlardir.

## 13-BOB

### Dengizdan chiqqan maxluq

<sup>1</sup> Ajdarho dengizning qum sohiliga borib turdi\*.

To'satdan men dengizdan bir maxluq chiqib kelganini ko'rdim. Uning yettita boshi va o'nta shoxi bor edi. Har bir shoxiga bittadan toj kiydirilgan, har bir boshiga esa kufrona nom yozilgandi. <sup>2</sup> Men ko'rgan bu maxluq qoplonga o'xshardi. Oyoqlari ayiqning oyog'iga, og'zi esa sherning og'ziga o'xshar edi. Ajdarho bu maxluqqa o'z qudrati, taxti va buyuk hokimiyatini berdi. <sup>3</sup> Maxluqning boshlaridan biri davolab bo'lmaydigan darajada qattiq yaralangan edi. Ammo uning bu yarasi sog'ayib qoldi. Shunda butun jahon hayratda qolib, maxluqqa ergashdi. Odamlar ajdarhoga sajda qilishdi, chunki ajdarho maxluqqa o'z hokimiyatini berdi. <sup>4</sup> Ular maxluqqa ham sajda qilib, shunday deb aytishardi: "Kim ham bu maxluqqa teng kelardi?! Kim ham unga qarshi chiqa olardi?!"

<sup>5</sup> Maxluqqa takabburona va kufrona so'zlar aytadigan og'iz berildi. Unga qirq ikki oy davomida hukmronlik qilish huquqi berildi. <sup>6</sup> Maxluq kufr ketib, Xudoni va Xudoning nomini la'natladi. U Xudo yashaydigan makonga va samoda yashaydigan har bir mavjudotga la'natlar yog'dirdi. <sup>7</sup> Unga Xudoning azizlariga qarshi jang qilish va ularni yengish uchun izn berildi. Unga har bir qabila, elat, millat va xalq ustidan hokimiyat berildi.

<sup>8</sup> Bu dunyoga qarashli odamlarning hammasi maxluqqa sajda qilishadi. Ularning ismlari bo'g'izlangan Qo'zining hayot kitobiga\* dunyo yaratilishidan oldin yozilmagan\*.

<sup>9</sup> Kimning eshitar qulog'i bo'lsa, eshitsin!

<sup>10</sup> Hamma peshanasidagini ko'radi:

Ba'zilar asirlikka tushib, surgunga ketadi.

Ba'zilar qilichdan o'tkaziladi\*,

Bu vaziyat Xudo azizlaridan sabr-toqatu imonni talab qiladi.

### Yerdan chiqqan maxluq

<sup>11</sup> Bundan so'ng men yerdan chiqayotgan boshqa bir maxluqni ko'rdim. Uning ikki shoxi qo'chqorning shoxlariga o'xshardi, u ajdarhoday gapirardi. <sup>12</sup> U birinchi maxluqqa xizmat qilib, uning butun hokimiyatini ishga solardi. Butun yer yuzi va u yerda yashaganlar yarasi tuzalgan birinchi maxluqqa sajda qilsin deb, ularni majburlardi. <sup>13</sup> Bu ikkinchi maxluq buyuk va mo'jizali alomatlar ko'rsatdi. U hatto hammaning ko'zi oldida osmondan yerga olov tushirdi. <sup>14</sup> Birinchi maxluqning nomidan bu mo'jizali alomatlarni ko'rsatishga unga izn berilgandi. Bu alomatlari bilan u yer yuzidagi odamlarni yo'ldan ozdirdi. U odamlarga: "Qilichdan yaralangan, ammo sog' qolgan maxluqning tasvirini yasanglar", — deb buyurdi. <sup>15</sup> Unga maxluqning tasviriga jon ato etish qudrati

berilgandi. Maxluq tasviri tilga kirdi va o'ziga sajda qilmaganlarning hammasini o'ldirtirdi. <sup>16</sup> U hammani — kattayu kichikni, boyu kambag'alni, qulu erkin odamni majburlab, ularning o'ng qo'li yoki peshanasiga tamg'a bostirdi. <sup>17</sup> Kimda maxluqning tamg'asi bo'lmasa, u mutlaqo oldi–sotdi qilolmasdi. Tamg'ada maxluqning nomi yoki nomining soni yozilardi.

<sup>18</sup> Bunda hikmat bor. Aqli yetgan odam maxluqning sonini hisoblab chiqsin, chunki bu son — ma'lum bir insonni bildiradigan sondir. Uning soni 666\*.

## 14–BOB

### Qo'zi va 144.000 kishi

<sup>1</sup> Men Sion tog'ida\* Qo'zining turganini ko'rdim. Qo'zi bilan birga 144.000 kishi bor edi. Ularning peshanalariga Qo'zining va Otasi Xudoning ismi yozilgandi. <sup>2</sup> Shunda men samodan bir tovush eshitdim. Bu tovush dengizning shovullashiday, gumburlagan momaqaldiraq tovushiday edi. U xuddi arfa chalayotgan cholg'uchilarning kuyiga o'xshardi. <sup>3</sup> O'sha 144.000 kishi taxt oldida, to'rtta jonli mavjudot va oqsoqollar oldida yangi bir qo'shiq kuylayotgan edilar. Dunyodan qutqarib olingan bu 144.000 kishidan boshqa hech kim bu qo'shiqni o'rgana olmas edi. <sup>4</sup> Bu odamlar bulg'anmaganlar, bokira qizlarday o'zlarini pok saqlaganlar\*. Qo'zi qayerga borsa, Uning orqasidan ergashganlar. Insonlar orasidan qutqarib olingan bu odamlar ilk hosil singari, Xudo va Qo'ziga nazr qilinganlar. <sup>5</sup> Ularning tilida yolg'on–makr yo'q, ular benuqsondirlar\*.

### Uch farishtaning xabari

<sup>6</sup> Shundan keyin boshim uzra uchib borayotgan bir farishtani ko'rdim. Bu farishta yer yuzida yashovchi har bir xalq va qabilaga, har qanday millatu elatga abadiy Xushxabarni e'lon qilayotgan edi. <sup>7</sup> U baland ovozda shunday dedi:

“Xudodan qo'rqing, Uni ulug'lang!  
U xalqlarni hukm qiladigan vaqt keldi.  
Yeru osmonni, dengizu buloqlarni Yaratganga sajda qiling!”

<sup>8</sup> Uning ketidan ikkinchi farishta uchib kelib, shunday dedi:

“Vayron bo'ldi!  
Buyuk Bobil shahri\* vayron bo'ldi!  
Bobil shahvoniy hirs sharobidan  
Hamma xalqlarga ichirgandi.”

<sup>9</sup> Ularning ketidan uchinchi farishta uchib kelib, baland ovozda shunday dedi:

— Kimki maxluqqa va uning tasviriga sajda qilib, peshanasi yoki qo'liga tamg'a qabul qilsa, <sup>10</sup> u Xudoning g'azab sharobidan ichadi. Qahr kosasiga quyilgan bu sharob nihoyatda kuchlidir. Bunday odamlar muqaddas farishtalar va Qo'zi oldida yonayotgan oltingugurt ichida azob chekadilar. <sup>11</sup> Azoblarining tutuni abadulabad burqirab turadi. Maxluq va uning tasviriga sajda qilib, maxluq nomli tamg'ani qabul qilganlar kechayu kunduz tinchlik bilmaydilar. <sup>12</sup> Bunday vaziyatda Xudoning amrlariga itoat qilgan va Isoga sodiq qolgan Xudoning azizlaridan sabr–toqat talab qilinadi.

<sup>13</sup> Shunda men samodan bir ovoz eshitdim. U menga dedi:

— Shunday deb yoz: bundan buyon Rabbimiz Isoga umid bog‘lab, olamdan ko‘z yumganlar baxtlidir!

— Ha, — deydi Ruh, — ular qilgan og‘ir mehnatidan dam olsinlar, mehnatining rohatini ko‘rsinlar.

### Yerning hosili o‘riladi

<sup>14</sup> Shundan keyin men bir oq bulutni ko‘rdim. Bulut ustida inson qiyofasidagi bir Zot\* o‘tirgandi. Uning boshida oltin toj, qo‘lida o‘tkir o‘roq bor edi. <sup>15</sup> Keyin Ma‘baddan bir farishta chiqdi. U bulut ustida o‘tirgan Zotga baland ovozda shunday dedi: “O‘rog‘ingizni ishga soling, chunki o‘rim–yig‘im vaqti keldi. Mana, yerning hosili yetildi.” <sup>16</sup> Bulut ustida o‘tirgan Zot yerga o‘roq soldi, yerning hosili o‘rildi.

<sup>17</sup> Samodagi Ma‘baddan boshqa bir farishta chiqdi. Uning ham o‘tkir o‘rog‘i bor edi. <sup>18</sup> So‘ng qurbongoh oldidan yana boshqa bir farishta keldi. U qurbongohdagi olov uchun mas‘ul edi. U o‘tkir o‘roqli farishtaga baland ovozda xitob qildi: “O‘tkir o‘rog‘ingni ishga sol. Yerdagi uzum boshlarini yig‘. Axir, uzum pishib bo‘ldi.”

<sup>19</sup> Farishta o‘rog‘ini yerga soldi. Yerdagi uzum boshlarini yig‘ib, Xudoning uzum siqadigan katta qahr–g‘azabi chuquriga\* uloqtirdi. <sup>20</sup> Shahar tashqarisidagi o‘sha chuqurda uzumlarni eza boshlashdi. Chuqurdan qon daryo bo‘lib oqib chiqdi. Bu qonli daryo 1600 o‘q otimi\* masofaga oqib bordi, u shunchalik chuqur ediki, deyarli otni ko‘mib yuborar edi.

## 15–BOB

### Yetti farishta va yetti balo

<sup>1</sup> Men samoda buyuk va hayratga soladigan boshqa bir alomatni ko‘rdim. Samoda yettita farishta turardi, har birining qo‘lida bittadan balo bor edi. Bu balolar so‘nggi balolar bo‘lib, Xudo g‘azabini yakunlar edi.

<sup>2</sup> Men go‘yo olov aralash oynaday bo‘lgan bir dengizni ko‘rdim. Uning yonida odamlar turgan edi. Ular maxluq ustidan, uning tasviri va nomini bildirgan son\* ustidan g‘alaba qozongan edilar. Ularning qo‘llarida Xudo bergan arfalar bor edi. <sup>3</sup> Ular Xudo quli Musoning va Qo‘zining qo‘shig‘ini\* kuylardilar:

“Yo Qodir Xudo — Egamiz,  
Buyuk va ajoyibdir Sening ishlaring.  
Ey xalqlarning Shohi!  
To‘g‘ri va haqdir Sening yo‘llaring.  
<sup>4</sup> Ey Egamiz, Sendan qo‘rqmaydigan bormi?!  
Nomingni ulug‘lamaydigan bormi?!  
Axir, yolg‘iz O‘zing muqaddasdirsan.  
Jamiki xalqlar huzuringga keladilar,  
Ular Senga sajda qiladilar.  
Zero, odil hukmlaring hammaga ayon bo‘ldi.”

<sup>5</sup> Shundan so‘ng men samoviy Ma‘badning Eng muqaddas xonasi\* ochilganini ko‘rdim. <sup>6</sup> Ma‘baddan yetti baloni tutgan yettita farishta chiqdi. Ularning egnida toza, oppoq zig‘ir liboslar bor edi, ko‘ksilariga oltin tasmalar bog‘langan edi. <sup>7</sup> To‘rtta



mavjudotdan biri bu yetti farishtaga yettita oltin kosani berdi. Bu kosalar to abad barhayot Xudoning g'azabi bilan to'lgan edi. <sup>8</sup> Ma'bad Xudoning ulug'vorligi va qudrati tutuniga to'lib ketdi. Yetti farishtaning yetti balosi tamom bo'lmaguncha, hech kim Ma'badga kira olmadi.

## 16–BOB

### Xudoning g'azabiga to'la yetti kosa

<sup>1</sup> Bundan keyin men Ma'baddan kelayotgan baland bir ovozni eshitdim. O'sha ovoz yettita farishtaga shunday dedi: "Boringlar, Xudoning g'azabiga to'lib-toshgan yetti kosadagi balolarni yerga to'kinglar."

<sup>2</sup> Birinchi farishta borib, kosasidagini yerga to'kdi. Maxluqning tamg'asi bosilgan va uning tasviriga sajda qilgan odamlarda og'ir, jirkanch yaralar paydo bo'ldi.

<sup>3</sup> Ikkinchi farishta kosasidagini dengizga to'kdi. Dengiz o'likning qoniga o'xshab qoldi. Dengizdagi hamma jonivorlar qirilib ketdi.

<sup>4</sup> Uchinchi farishta kosasidagini daryolarga va buloqlarga to'kdi, ular ham qonga aylandi. <sup>5</sup> Suvlar uchun mas'ul bo'lgan farishtaning shunday deganini eshitdim:

"Ey Muqaddas Xudo,  
Sen bor bo'lgansan, hozir ham borsan.  
Sening chiqargan bu hukmlaring odildir.

<sup>6</sup> Azizlaring va payg'ambarlaringning qonini to'kkanlarga  
Sen qon ichirding, ular bunga loyiqdir."

<sup>7</sup> Qurbongohdan shunday bir ovoz eshitildi:

"Ha, Qodir Xudo — Egamiz!  
Sening hukmlaring haq va adolatlidir."

<sup>8</sup> To'rtinchi farishta o'z kosasini quyosh ustiga to'kdi, quyoshga insonlarni olov bilan yondirish qudrati berildi. <sup>9</sup> Jazirama issiq insonlarni kuydirganda, ular bu ofatlar ustidan hokimiyatga ega bo'lgan Xudoni la'natladilar. Ular qilmishlaridan tavba qilmadilar, Xudoni ulug'lamadilar.

<sup>10</sup> Beshinchi farishta kosasidagini maxluq taxtiga to'kdi, maxluqning saltanati zimistonga chulg'anib qoldi. Odamlar chekkan azobidan tillarini tishlardilar.

<sup>11</sup> Yaralarining og'rig'idan Samoviy Xudoni la'natlardilar. Ammo qilmishlaridan tavba qilmadilar.

<sup>12</sup> Oltinchi farishta kosasidagini buyuk Furot daryosi ustiga to'kdi. Daryoning suvi quridi. Sharqdan bostirib keladigan shohlarga yo'l ochildi.

<sup>13</sup> Bundan keyin men qurbaqalarga o'xshash uchta yovuz ruhni ko'rdim. Ular ajdarho, maxluq va soxta payg'ambarning\* og'izlaridan chiqayotgan edilar. <sup>14</sup> Bular jinlar bo'lib, mo'jizali alomatlar ko'rsata olardilar. Ular Qodir Xudoning ulug' kunida bo'ladigan jangga barcha jahon shohlarini to'plagan bordilar.

<sup>15</sup> Masihning shunday gaplarini yodingizda tuting:

"Mana, Men o'g'ri kabi nogahon kelaman!

Hushyor turgan kishi baxtlidir,  
Yalang'och yurmayin, sharmanda bo'lmayin deb,  
Kiyimini taxt qilib qo'ygan kishi baxtlidir!"

<sup>16</sup> Uchta yovuz ruh jahon shohlarini ibroniychadagi Xar–Magido'n degan joyga to'pladilar.

<sup>17</sup> Yettinchi farishta kosasidagini havoga to'kdi. Ma'baddagi taxtdan: "Amalga oshdi!" — degan baland bir ovoz keldi. <sup>18</sup> Shu vaqt chaqmoq chaqib, momaqaldiroqning gulduros sadolari yangradi, kuchli zilzila bo'ldi. Zilzila shu qadar kuchli ediki, yer yuzida inson yashagandan beri bunaqasi bo'lmagandi. <sup>19</sup> Buyuk shahar uch qismga bo'linib ketdi. Boshqa xalqlarning shaharlari yer bilan yakson bo'ldi. Xudo buyuk Bobil shahrini\* yodga oldi. U Bobilga kosadagi O'zining g'azabi sharobidan berdi. <sup>20</sup> Har bir orol o'rnidan jildi, tog'lar ko'zdan g'oyib bo'ldi. <sup>21</sup> Osmondan odamlar ustiga yirik do'l yog'ildi. Har bir do'l donasining og'irligi ikki pud\* chiqardi. Bu dahshatli do'l dastidan odamlar Xudoni la'natlashardi.

## 17–BOB

### Maxluqni mingan ayol

<sup>1</sup> Yettita kosani tutgan yetti farishtadan biri kelib, menga shunday dedi: "Bu yoqqa kel, men senga mashhur fohishaning oladigan jazosini ko'rsataman. Fohisha timsolidagi bu buyuk shahar\* serob suvlar bo'yida joylashgan\*." <sup>2</sup> Yer yuzining shohlari u bilan zino qilardi, yer yuzida yashayotganlar uning fahshu zino sharobidan ichib, mast bo'lishardi."

<sup>3</sup> Muqaddas Ruh meni qamrab oldi, farishta meni cho'lga olib bordi. U yerda men qip–qizil maxluq\* ustida o'tirgan bir ayolni ko'rdim. Maxluqning hamma yog'iga kufrona nomlar yozilgandi, uning yettita boshi va o'nta shoxi bor edi. <sup>4</sup> Ayol safsar va qip–qizil liboslar kiygan, oltin, javohir va marvaridlar bilan bezangandi. Uning qo'lida oltin kosa bor edi, bu kosa jirkanchli narsalarga, fahshu haromliklarga to'lib–toshgan edi.

<sup>5</sup> Ayolning peshanasiga sirli ma'noga ega bo'lgan shunday bir ism yozilgandi: "Buyuk Bobil — fohishalarning va yer yuzidagi jirkanch ishlarning onasidir."

<sup>6</sup> Men ayolning Xudo azizlari qonidan, ya'ni Iso shohidlari qonidan mast bo'lganini ko'rdim. Uni ko'rib, g'oyat darajada hayron qoldim.

<sup>7</sup> Farishta menga dedi: "Nega hayron bo'lasan? Men senga ayolning va u mingan yetti boshli, o'n shoxli maxluqning sirini aytib beraman. <sup>8</sup> Sen ko'rgan bu maxluq qachonlardir bor edi, endi esa yo'q. U ko'p o'tmay tubsiz chuqurlikdan chiqadi va mahv etiladi. Dunyo yaratilishidan oldin ismlari hayot kitobiga\* yozilmagan yer yuzidagi hamma odamlar maxluqni ko'rib, hayron qoladilar. Chunki bu maxluq bor edi, hozir yo'q, ammo yana keladi.

<sup>9</sup> Bularni anglamoq uchun aqlu idrok darkor. Maxluqning yetti boshi — ayol o'tirgan yettita tepalikning timsolidir. <sup>10</sup> Bu yetti bosh yettita hukmdorni ham bildiradi. Bularning beshtasi qulagan, bittasi hozir hukmronlik qilyapti, boshqasi esa hali kelgani yo'q. U kelganda ham ko'p vaqt turmaydi. <sup>11</sup> Ilgari bor, hozir yo'q maxluq esa yettita hukmdordan biri bo'la turib, sakkizinchi hukmdor sifatida qaytib keladi va mahv etiladi.

<sup>12</sup> Sen ko'rgan maxluqning o'nta shoxi hali taxtga o'tirmagan boshqa o'nta hukmdorni bildiradi. Ular qisqa vaqt davomida maxluq bilan birga hukmronlik qiladilar.

<sup>13</sup> Bu hukmdorlar birlashib, o'zlarining qudrati va hokimiyatini maxluqqa topshiradilar.

<sup>14</sup> Ular Qo'ziga qarshi jang qiladilar. Ammo Qo'zi O'zining da'vat etilgan, tanlangan va sodiq izdoshlari bilan ularni yengadi. Axir, Qo'zi hukmdorlarning Hukmdori, shohlarning Shohidir."

<sup>15</sup> Farishta menga yana shunday dedi: "Sen fohishaning suvlar bo'yida o'tirganini ko'rding. Bu suvlar to'da-to'da elatlarni, xalqlaru millatlarni bildiradi. <sup>16</sup> Sen ko'rgan o'nta shox va maxluq fohishadan nafratlanadilar. Uni xonavayron qilib, yalang'och qoldiradilar. Uning etini yeydilar, qoldiqlarini esa olovda yondiradilar. <sup>17</sup> Xudoning aytgan so'zlari amalga oshmaguncha, o'nta hukmdor birlashib, o'z hokimiyatini maxluqqa topshiradilar. Zero, bu maqsadni ularning diliga Xudoning O'zi solgan. <sup>18</sup> Sen ko'rgan ayol — yer yuzi shohlari ustidan hukmronlik qiladigan buyuk shahardir."

## 18-BOB

### Bobil vayron bo'ladi

<sup>1</sup> Bundan keyin men samodan tushib kelayotgan boshqa bir farishtani ko'rdim. Unda buyuk hokimiyat bor edi. Uning ulug'vorligidan yer yuzi yorishib ketdi. <sup>2</sup> U qattiq hayqirib, shunday dedi:

"Vayron bo'ldi! Buyuk Bobil\* vayron bo'ldi!  
U jinlarning makoni, har turli yovuz ruhning panohi,  
Har qanday harom va jirkanch qushning uyasi bo'lib qoldi.  
Axir, barcha xalqlar Bobilning  
Shahvoniy hirsini sharobidan ichgandi.  
<sup>3</sup> Yer yuzi shohlari u bilan zino qilgandi,  
Yer yuzi savdogarlari  
Uning cheksiz shahvati tufayli boylik orttirdi."

<sup>4</sup> Shu payt men samodan kelayotgan boshqa bir ovozni eshitdim. U shunday dedi:

"Ey xalqim, Bobildan chiqib keting!  
Tag'in gunohlariga sherik bo'lib qolmang,  
Tag'in sizlar ham Bobilning balolariga duchor bo'lmang!  
<sup>5</sup> Zero, uning gunohlari uyilib ko'kka yetdi,  
Xudo uning jinoyatlarini yodga oldi.  
<sup>6</sup> Bobil sizga nima qilgan bo'lsa,  
Xudo ham unga shuni qilsin!  
Qilmishiga yarasha ikki barobar jazosini bersin!  
O'zi tayyorlagan ichimlikdan unga ikki barobar ichirsin!  
<sup>7</sup> Bobil qay darajada kekkayib, kayf-safo surgan bo'lsa,  
Unga shu darajada azobu iltirob berilsin!  
Axir, u dilida shunday demoqda:  
«Men malikaman, beva emasman,  
Aslo qayg'u chekmayman.»  
<sup>8</sup> Shu bois uning boshiga balolar keladi,  
U bir kunning ichida o'lat, qayg'u, qahatchilikka duchor bo'ladi."

Uni olovda yondirishadi.

Axir, uni hukm qiluvchi Egamiz Xudo qudratlidir!”

<sup>9</sup> Bobil bilan zino qilib, kayf–safo surgan yer yuzi shohlari yonayotgan Bobilning tutunini ko‘rib, uning holiga ho‘ngrab yig‘laydilar. <sup>10</sup> Bobilning azob–uqubatidan dahshatga tushib, uzoqdan turib, deydilar:

“Ey buyuk shahar, holingga voy!

Ey qudratli Bobil, holingga voy!

Sen bir soatdayoq jazoingni olding!”

<sup>11</sup> Yer yuzi savdogarlari ham uning holiga yig‘lab, motam tutadilar. Chunki ularning molini endi hech kim sotib olmaydi. <sup>12</sup> Oltin, kumush, javohirlaru marvaridlarni, mayin zig‘ir matosi, shoyi, safsaru qirmizi gazlamalarni, turli xil xushbo‘y yog‘ochlarni, fil suyagidan yasalgan har xil buyumlarni, eng qimmatbaho yog‘ochdan, bronzadan, temirdan va marmardan yasalgan buyumlarni, <sup>13</sup> dolchin, ziravorlar, xushbo‘y tutatqilar va mirrani\*, sharob, zaytun moyini, oliy navli un va bug‘doyni, mol–qo‘ylarni, otlaru aravalarni, odamlarning jonini, tanasini ham sotib oladigan boshqa hech kim bo‘lmaydi. <sup>14</sup> Savdogarlar shunday deb aytishadi: “Ey Bobil, sen orzu qilgan ne‘matlaring yo‘q bo‘ldi. Hashamatu savlating nom–nishonsiz g‘oyib bo‘ldi.” <sup>15</sup> Ha, o‘sha mollarini Bobilga sotib, boyib ketgan savdogarlar Bobilning azob–uqubatidan dahshatga tushib, qayg‘urib yig‘laydilar:

<sup>16</sup> “Holingga voy!

Ey buyuk shahar, holingga voy!

Sen mayin zig‘ir matosidan kiyim kiyar eding,

Safsaru qirmizi liboslar ila yasanarding.

Oltin, javohirlaru marvaridlar ila bezanarding.

<sup>17</sup> Shunday boyliging bir soatdayoq nobud bo‘ldi–ya!”

Har bir kema darg‘asi, kemadagi yo‘lovchilar, dengizchilar va dengizda savdo–sotiq qiluvchilarning hammasi uzoqdan Bobilga qarab turadilar. <sup>18</sup> Shahardagi yong‘indan chiqayotgan tutunni ko‘rib, shunday faryod qiladilar: “Bu buyuk shaharga teng keladigani yo‘q!” <sup>19</sup> Ular boshlariga kul sochib, faryod chekib, qayg‘urib, dod soladilar:

“Holingga voy!

Ey buyuk shahar, holingga voy!

Dengizdagi kemalarga ega bo‘lganlar

Sening ziynatlaring tufayli boyluk orttirdilar.

Endi esa sen bir soatdayoq xarob bo‘lding!

<sup>20</sup> Ey samo, uning holidan shodlangin,

Ey Xudoning azizlari, xursand bo‘ling,

Havoriylaru payg‘ambarlar, sevining!

Zero, Xudo sizlarni deb, Bobilni jazoladi.”

<sup>21</sup> Keyin kuchli bir farishta tegirmon toshiga o‘xshash katta toshni ko‘tarib, dengizga

uloqtirdi–da, shunday dedi:

“Mana shunday shiddat bilan

Buyuk shahar Bobil qulaydi!

Endi u aslo qad ko'tarmaydi.

<sup>22</sup> Arfachilaru ashulachilarning ovozlari senda eshitilmas,

Naychiyu karnaychilarning kuyi senda yangramas.

Endi bironta hunarmand senda ustaxona ochmaydi.

Tegirmon toshining tovushi ko'chalaringda eshitilmaydi.

<sup>23</sup> Endi ko'chalaringdagi chiroqlar shu'la sochmaydi,

Kuyov bilan kelinning ovozi eshitilmaydi.

Zero, savdogarlaring butun dunyoga so'zini o'tkazardi,

Sehr–jodularing dastidan jamiki xalqlar aldangan edi.

<sup>24</sup> Payg'ambarlar va Xudo azizlarining qoni ko'chalaringda to'kildi,

Ha, yer yuzida qirg'inga duchor bo'lganlar senda o'ldirildi.”

## 19–BOB

### Samodagi hamdu sano

<sup>1</sup> Bundan keyin men samodagi katta olomonning g'ala–g'ovuriga o'xshash baland ovozlarni eshitdim:

“Egamizga hamdu sanolar bo'lsin!

Najot, ulug'vorlik va qudrat Xudoyimizga tegishlidir.

<sup>2</sup> Zotan, U to'g'ri va adolatli hukm qiladi.

Yer yuzini fahsh–zino ila bulg'agan ashaddiy fohishani U mahkum etdi,

Undan O'z qullarining xunini oldi.”

<sup>3</sup> Olomon yana shunday deb hayqirdi:

“Egamizga hamdu sanolar bo'lsin!

Bobildan\* to abad burqirab tutun chiqadi.”

<sup>4</sup> Shu payt yigirma to'rt nafar oqsoqol va to'rt mavjudot yerga muk tushib: “Omin!

Egamizga hamdu sanolar bo'lsin!” — deya taxtda o'tirgan Xudoga sajda qildilar.

<sup>5</sup> Keyin taxtdan bir ovoz keldi:

“Ey Xudoyimizning barcha qullari,

Undan qo'rquvchi kattayu kichiklar,

Xudoga hamdu sano aytinglar!”

<sup>6</sup> So'ngra men katta bir olomonning ovoziga o'xshash, shovullagan dengiz, gumburlagan momaqaldiroqning sadosiga o'xshash ovozlarni eshitdim. Ular shunday der edilar:

“Egamizga hamdu sanolar bo'lsin!

Qodir Xudo — Egamiz hukmronlik qilmoqda!

<sup>7</sup> Sevinib xursand bo'laylik,

Hamмамiz Uni ulug'laylik!  
Axir, Qo'zining nikoh kuni keldi,  
Uning kelini o'zini to'yga tayyorladi."

<sup>8</sup> Kiyishi uchun kelinga yarqiragan, pok, mayin zig'ir libos berildi. Bu libos — Xudo azizlarining odil ishlaridir.

<sup>9</sup> Keyin farishta menga shunday dedi:

— Qani, yoz: "Qo'zining nikoh to'yiga taklif etilganlar baxtlidir!"

Yana qo'shib dedi:

— Bular Xudoning haq so'zlaridir.

<sup>10</sup> Men farishtaga sajda qilish uchun o'zimni oyoqlari ostiga tashladim. Lekin u menga dedi:

— Yo'q, menga sajda qilma! Faqat Xudoga sajda qil! Men ham senga o'xshab Xudoga xizmat qilyapman, Iso haqida shahodat beradigan sen va birodarlaring singari, Xudoning xizmatkoriman. Darhaqiqat, Iso haqida shahodat berganlar payg'ambarlardir, ular Xudoning haq xizmatkorlaridir.

### **Oq ot mingan Chavandoz**

<sup>11</sup> Bundan keyin men osmonning ochilganini ko'rdim. U yerda bir oq ot turar edi. Ustidagi Chavandozni Sodiq va Haq deb chaqirishardi. U odilona hukm chiqarib, jang qilardi. <sup>12</sup> Uning ko'zlari otash alangasiday chaqnardi. Boshida ko'p tojlar bor edi. Peshanasiga esa O'zidan boshqa hech kim bilmaydigan bir ism yozilgandi. <sup>13</sup> Egnidagi kiyimi qonga belangandi. Chavandozga "Xudoning Kalomi" deb nom berilgan edi.

<sup>14</sup> Oppoq, top-toza, mayin zig'ir libos kiygan samoviy qo'shinlar oq otlarda Chavandozga ergashib borishardi. <sup>15</sup> Uning og'zidan o'tkir bir qilich chiqib turardi. U o'sha qilichi bilan xalqlarni mag'lub etadi, qo'lidagi temir xivchin bilan ularni boshqaradi\*. Qodir Xudoning qaynoq qahr-g'azabi chuqurdagi\* uzumlarni bosib ezadi. <sup>16</sup> Kiyimining son qismida: "shohlarning Shohi, hukmdorlarning Hukmdoridir" degan ism yozilgan.

<sup>17</sup> Shundan so'ng men quyosh ustida turgan bir farishtani ko'rdim. U uchib ketayotgan barcha qushlarga baland ovozda shunday xitob qildi: "Xudoning buyuk bazmiga kelinglar! <sup>18</sup> Shohlar, sarkardalar, bahodir jangchilarning jasadlarini, otu suvorilar, hamma qulu erkin, kattayu kichikning jasadlarini yeyish uchun to'planinglar!"

<sup>19</sup> Shunda men maxluqni, yer yuzi shohlarini, ularning qo'shinlarini ko'rdim. Ular ot mingan Chavandoz bilan Uning qo'shinlariga qarshi jang qilish uchun safarbar bo'lgan edilar. <sup>20</sup> Maxluq asir tushdi. U bilan birga soxta payg'ambar\* ham asir olindi. Bu soxta payg'ambar maxluqning nomidan mo'jizali alomatlar ko'rsatgandi, bu alomatlar bilan maxluqning tamg'asini olgan va uning tasviriga sajda qilgan odamlarni aldagan edi. Maxluqni ham, soxta payg'ambarni ham oltingugurt yonayotgan olov ko'liga tiriklayin tashlashdi. <sup>21</sup> Boshqalar esa ot mingan Chavandozning og'zidan chiqqan qilich bilan o'ldirildi. Hamma qushlar bo'kib qolguncha ularning go'shtidan yedi.

## **20-BOB**

### **Ming yillik tinchlik**

<sup>1</sup> Men samodan tushayotgan bir farishtani ko'rdim. Uning qo'lida tubsiz chuqurlikning kaliti va katta zanjir bor edi. <sup>2</sup> Farishta ajdarhoni tutib oldi. Iblis va

shayton deb atalgan bu almisoq ilonni u ming yil muddatga kishanlab qo'ydi. <sup>3</sup>Yana xalqlarni aldamasin deb, uni tubsiz chuqurlikka tashlab, qamab qo'ydi. Ming yil tamom bo'lgunga qadar kiraverishni muhladi. Ming yil o'tgandan keyin uni qisqa bir muddatga ozod qilishi kerak edi.

<sup>4</sup>Bundan so'ng, men taxtlarni va taxtlarda o'tirganlarni ko'rdim. Xudo taxtlarda o'tirganlarni oqlagan edi\*. Ular Iso haqidagi shahodati va Xudoning so'zi tufayli boshi olinganlarning jonlari edi. Ular maxluqqa va uning tasviriga sajda qilmaganlar, peshanalari va qo'llariga uning tamg'asini bostirmaganlar. Ular tirilib, Masih bilan ming yil hukmronlik qildilar. <sup>5-6</sup>Bu birinchi tirilishdir. Birinchi tirilishda ishtirok etganlar baxtli va muqaddasdir. Ikkinchi o'lim\* ularga hokim emas. Ular Xudoning va Masihning ruhoniylari bo'lib, U bilan ming yil davomida hukmronlik qiladilar.

Qolgan o'liklar esa ming yil o'tmaguncha tirilmadi.

### **Shayton jazolanadi**

<sup>7</sup>Ming yil o'tgach, shayton o'z zindonidan ozod etiladi. U chiqib, yerning to'rt burchagidagi xalqlarni, ya'ni Go'g va Mago'gni\* aldab, jangga to'playdi. To'plangan xalqlarning soni dengiz qumiday son-sanoqsiz bo'ladi.

<sup>8</sup>Ular butun yer yuzini qoplab oladilar, Xudo azizlarining qarorgohini va Xudo yaxshi ko'radigan shaharni\* qamal qiladilar. <sup>9</sup>Shunda osmondan olov tushib, ularni qirib tashlaydi. <sup>10</sup>Ularni aldagan iblis oltingugurtli ko'lga tashlanadi. Maxluq va soxta payg'ambar\* ham o'sha ko'lga tashlangan edilar. Ular kechayu kunduz, abadulabad u yerda azob chekadilar.

### **Qiyomat kuni**

<sup>11</sup>Keyin men ulkan bir oq taxtni va taxtda o'tirgan Zotni ko'rdim. Uning huzuridan yeru osmon qochar edi, biroq ularga yashiringani joy topilmadi. <sup>12</sup>Men o'sha ulkan taxt oldida turgan kattayu kichik o'liklarni ko'rdim. Kitoblar ochildi. Hayot kitobi\* degan boshqa bir kitob ham ochildi. O'liklar kitoblarda yozilgani bo'yicha qilmishlariga yarasha hukm etildi. <sup>13</sup>Dengiz o'zidagi o'liklarni berdi, o'lim ham, o'liklar diyori\* ham o'zlaridagi o'liklarni berdi. Har bir kishi qilmishiga yarasha hukm etildi. <sup>14</sup>O'lim va o'liklar diyori olov ko'lga tashlandi. Mana bu olov ko'li ikkinchi o'limdir\*. <sup>15</sup>Ismlari hayot kitobida yozilmaganlarning hammasi olov ko'lga tashlandi.

## **21-BOB**

### **Yangi yeru osmon**

<sup>1</sup>Shundan keyin men yangi bir osmon va yangi bir yerni ko'rdim. Avvalgi yeru osmon g'oyib bo'lgan edi, dengiz ham endi yo'q edi. <sup>2</sup>Men muqaddas shahar — yangi Quddusni ko'rdim. Quddus samodan, Xudo huzuridan tushib kelayotgan edi. U kuyovi uchun bezanib olgan kelinchakka o'xshar edi. <sup>3</sup>Men taxtdan baland bir ovoz kelganini eshitdim. O'sha ovoz dedi:

“Xudoning maskani insonlar orasidadir!  
U endi odamlar orasida yashaydi,  
Ular Xudoning xalqi bo'ladilar.  
Xudoning O'zi ular bilan birga bo'ladi.

<sup>4</sup>Xudo ularning ko'zidagi har bir tomchi yoshni artib qo'yadi.  
Endi o'lim mavjud bo'lmaydi,  
Hech kim qayg'urmaydi, yig'lamaydi, azob chekmaydi.  
Zero, avvalgilar o'tib ketdi."

<sup>5</sup>Taxtda o'tirgan Zot shunday dedi: "Mana, Men hammasini yangi qilib yaratyapman!" Keyin U menga dedi: "Bularni yozib qo'y. Axir, bu so'zlar ishonchli va to'g'ridir!" <sup>6</sup>So'ng menga yana dedi: "Amalga oshdi! Ibtido va Intiho\*, Boshi va Poyoni O'zimman. Chanqaganga Men buloqdagi hayotbaxsh suvdan ichiraman. Buning evaziga u hech qanday to'lov bermaydi. <sup>7</sup>G'olib kelganlarga bu barakalar nasib bo'ladi. Men uning Xudosi bo'laman, u Mening o'g'lim bo'ladi. <sup>8</sup>Ammo qo'rqqoq, imondan qaytgan, iflos, qotil, buzuq, jodugar, butparast va hamma yolg'onchilarning qismati olov va oltingugurt bilan yonayotgan ko'ldadir. Bu ikkinchi o'limdir\*."

### Yangi Quddus

<sup>9</sup>Shu payt men oxirgi yetti baloga to'ldirilgan yettita kosani ushlagan yetti farishtadan birini ko'rdim. U oldimga kelib, menga dedi: "Bu yoqqa kel! Men senga kelinni, Qo'zining xotinini ko'rsataman."

<sup>10</sup>Muqaddas Ruh meni qamrab oldi va farishta meni baland bir tog'ning cho'qqisiga olib chiqdi. U menga samodan, Xudo huzuridan tushayotgan muqaddas shahar — Quddusni ko'rsatdi. <sup>11</sup>Shahar Xudoning ulug'vorligiga to'lib, qimmatbaho javohirday, billur kabi musaffo bo'lgan yashma toshiday yarqirardi. <sup>12</sup>Qalin va baland devor bilan o'ralgan bu shaharning o'n ikki darvozasi bor edi. Har bir darvozani bittadan farishta qo'riqlardi. Darvozalarda Isroil xalqining o'n ikki qabilasi nomlari yozilgandi.

<sup>13</sup>Darvozalarning uchtasi sharqda, uchtasi shimolda, uchtasi janubda va uchtasi g'arbda joylashgan edi. <sup>14</sup>Shahar devorlarining o'n ikkita poydevori bor edi. Poydevorlarga Qo'zining o'n ikki havoriysi ismlari yozilgandi.

<sup>15</sup>Menga gapirgan farishtaning qo'lida oltin chizg'ichi bor edi. Bu chizg'ich shaharni, uning darvozalariyu devorini o'lchash uchun edi. <sup>16</sup>Shahar to'rtburchak shaklda bo'lib, uzunligi bilan eni bir xil edi. Farishta chizg'ichi bilan shaharni o'lchadi, shaharning eni 12.000 o'q otimi\* ekan. Uning uzunligi bilan balandligi ham shunday edi. <sup>17</sup>So'ng farishta shaharning devorini o'lchadi. Devorning balandligi\* 144 tirsak\* chiqdi. Farishta insoniy o'lchovdan foydalangandi. <sup>18</sup>Shahar devori yashma toshidan qurilgandi.

Shaharning o'zi esa shishaday tiniq, sof oltindan edi. <sup>19</sup>Shahar devorlarining poydevorlari turli qimmatbaho toshlar\* bilan bezatilgan edi: birinchi poydevor yashmadan, ikkinchisi ko'k yoqutdan, uchinchisi agatdan, to'rtinchisi zumraddan edi.

<sup>20</sup>Beshinchisi aqiq, oltinchisi la'l, yettinchisi xrizolit, sakkizinchisi berill, to'qqizinchisi topaz, o'ninchisi zabarjad, o'n birinchisi lojuvard, o'n ikkinchisi ametistdan edi. <sup>21</sup>O'n ikki darvoza o'n ikki marvariddan iborat edi. Har bir darvoza bitta marvariddan yasalgan edi. Shaharning shoh ko'chasi sof oltindan bo'lib, shishaday musaffo edi.

<sup>22</sup>Men bu shaharda Ma'bad ko'rmadim. Zotan, Qodir Xudo — Egamizning O'zi va Qo'zi shaharning Ma'badidir. <sup>23</sup>Shaharni yoritish uchun quyoshga yoki oyga ehtiyoj ham yo'q. Chunki Xudoning ulug'vorligi uni yoritadi, Qo'zining O'zi uning chirog'i bo'ladi.

<sup>24</sup>Xalqlar shaharning nurida yurishadi. Yer yuzi shohlari unga o'z boyliklarini keltirishadi. <sup>25</sup>Shahar darvozalari kun bo'yi yopilmaydi, u yerda tun bo'lmaydi.

<sup>26</sup>Xalqlarning ulug'vor xazinalari unga kiritiladi. <sup>27</sup>Lekin hech qanday harom narsa,



jirkanch ishlar qiladigan yoki yolg'on gapiradigan bironta kishi unga kirmaydi. Faqat Qo'zining hayot kitobida\* yozilganlar kiradilar.

## 22–BOB

### Hayot daryosi

<sup>1</sup> Farishta menga billurday tiniq, hayotbaxsh suvlar daryosini ko'rsatdi. Bu daryo Xudoning va Qo'zining taxtidan chiqib, <sup>2</sup> shahar ko'chasi bo'ylab oqayotgan edi. Daryoning ikkala qirg'og'ida ham hayot daraxti bor edi. Bu daraxt yilda o'n ikki marta, har oy hosil beradi. Daraxtning barglari xalqlarga shifo baxsh etadi. <sup>3</sup> La'nat degan narsa u yerda qolmaydi. Shaharda Xudoning va Qo'zining taxti bo'ladi, Xudoning qullari Unga xizmat qiladi. <sup>4</sup> Ular Xudoning jamolini ko'radi. Xudoning ismi ularning peshanalariga yoziladi. <sup>5</sup> U yerda boshqa tun bo'lmaydi. Chiroqqa ham, quyoshga ham ehtiyoj qolmaydi. Axir, Egamiz Xudo ularga nur sochadi, ular esa to abad hukmronlik qiladi.

### Iso kelyapti

<sup>6</sup> Farishta menga shunday dedi: “Bu so'zlar ishonchli va to'g'ridir. Payg'ambarlarni ruhlantirgan Egamiz Xudo O'z qullari oldiga farishtasini yubordi. Toki farishta yaqin orada yuz berishi muqarrar bo'lgan voqealarni ularga bildirsin.”

<sup>7</sup> Masih shunday demoqda:

“Men tezda kelaman!

Bu kitobning bashorat so'zlariga

Amal qilganlar baxtlidir!”

<sup>8</sup> Men, Yuhanno, bularni ko'rdim va eshitdim. Bularni ko'rib eshitganimdan keyin, bu narsalarni menga ko'rsatgan farishtaga sajda qilmoqchi bo'lib, o'zimni uning oyoqlariga tashladim. <sup>9</sup> Ammo u menga dedi: “Zinhor bu ishni qilma! Men sening hamkoringman, shuningdek, payg'ambar birodarlaringning va bu kitobdagi so'zlarga rioya qiluvchilarning hamkoriman. Xudoga sajda qil!”

<sup>10</sup> Keyin menga yana shunday dedi: “Bu kitobning bashorat so'zlarini sir saqlama, chunki vaqt yaqindir. <sup>11</sup> Badkirdorlar yomonligini qilaversin. Ifloslar iflosligini davom ettiraversin. Solihlar esa to'g'ri ish qilishdan to'xtamasin, muqaddas odamlar o'zini muqaddas saqlasin.”

<sup>12</sup> Masih shunday demoqda:

“Men tez kelaman, mukofotim O'zim bilan.

Har kimga qilmishiga yarashasini beraman.

<sup>13</sup> Men Ibtido va Intihodirman\*,

Birinchi va Oxirgi,

Boshi va Poyonidirman.”

<sup>14</sup> Liboslarini yuvganlar\* naqadar baxtlidir! Ular hayot daraxti mevasidan yeyishga, shahar darvozalaridan kirishga haqli bo'ladilar. <sup>15</sup> Hamma “ko'ppaklar” — jodugarlar, axloqi buzuqlar, qotillar, butparastlar, yolg'onga ruju qo'yib, hiyla ishlatganlar esa tashqarida qoladilar.

<sup>16</sup> “Men, Iso, O‘z farishtamni oldingizga yubordim,  
Toki u bular to‘g‘risida jamoatlarimga shahodat bersin.  
Men Dovud ildizidan chiqqan Zotdirman\*, uning zurriyotiman,  
Yorug‘ tong yulduziman.”

<sup>17</sup> Ruh ham, kelin ham: “Kel!” — deb chorlayapti. Ushbu bashorat so‘zlarni tinglayotgan kishi\* ham: “Kel!” — deb aytsin. Kim chanqagan bo‘lsa, kelsin. Kim xohlasa, hayotbaxsh suvdan tekin bahra olsin.

<sup>18</sup> Bu kitobning bashorat so‘zlarini eshituvchi har bir kishini ogohlantiraman: kimda–kim bu so‘zlarga biror narsa qo‘shsa, Xudo ham o‘sha kishining jazosiga bu kitobda yozilgan balolarni qo‘shadi. <sup>19</sup> Kimda–kim bu kitobdagi bashorat so‘zlaridan birortasini chiqarib tashlasa, Xudo ham o‘sha kishini bu kitobda yozilgan hayot daraxtidan va muqaddas shahardan benasib qiladi\*.

<sup>20</sup> Bu gaplarning Shohidi: “Ha, Men tez kelaman!” — deb aytmoqda.  
Omin! Yo Rabbimiz Iso, kelgin!

<sup>21</sup> Rabbimiz Isoning inoyati barchangizga yor bo‘lsin\*.

## IZOHLAR

**1:3** *Ushbu bashorat so'zlarini ovoz chiqarib o'qiyotgan odam...Uni tinglab...* — imonlilar birga yig'lganda mana shu kitobning ovoz chiqarib o'qilishiga ishora. Qadimda ko'pchilik o'qishni bilmas edi.

**1:4-5** *Asiya viloyatidagi imonlilarning yettita jamoati* — bu jamoatlar (shu bobning 11-oyatiga qarang) Rim imperiyasiga qarashli bo'lgan Asiya viloyatida joylashgan edi. Asiya viloyati hozirgi Turkiyaning g'arbida edi.

**1:6** *Ota* — Xudoning unvoni. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA so'ziga qarang.

**1:8** *Ibtido va Intiho* — yunoncha matnda *Alfa va Omega*, ya'ni yunon alifbesining birinchi va so'nggi harflari.

**1:9** *Patmos oroli* — Egey dengizidagi, Efes shahridan qariyb 100 kilometr janubi-g'arbda, qoyalardan iborat kichkina orol.

**1:10** *Yakshanba kuni* — yunoncha matnda *Rabbimizning kuni*, masihiylar bu kunni shunday deb atardilar, chunki Iso yakshanba kuni o'likdan tirilgandi. Shu sababdan masihiylar yakshanba kuni Xudoga sajda qilish uchun birga yig'iladilar.

**1:10** Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida Iso aytgan so'zlarning boshiga quyidagi so'zlar qo'shimcha qilingan: *Men Ibtido va Intiho, Boshi va Poyonidirman*.

**1:11** *Smirna* — hozirgi Turkiyaning Izmir shahri.

**1:13** *inson qiyofasidagi bir Zot* — Iso Masihga ishora. Doniyor 7:13-14 ga qarang.

**1:18** *o'liklar diyori* — yahudiylar bu joyni, yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong'i joy, deb tushunardi.

**1:20** *yetti jamoatning farishtalari* — jamoatlarni qo'riqlovchi farishtalarga ishora bo'lishi mumkin (Havoriylar 12:15 ga va o'sha oyatning izohiga qarang). Yunonchadagi *farishta* so'zi *elchi* ma'nosini ham beradi. Shu sababdan ba'zi olimlarning aytishlaricha, bu o'rindagi yunoncha so'z matnda aytib o'tilgan yetti jamoatning yetakchilarini bildirishi mumkin. Yoki Yuhannoni ko'rib kelish uchun va o'sha jamoatlarga Iso Masihdan xabar yetkazish uchun yuborilgan yetti jamoatning elchilariga ishora bo'lishi ham mumkin (2:1, 8, 12, 18, 3:1, 7, 14 ga qarang).

**2:1** *jamoatining farishtasi* — 1:20 izohiga qarang.

**2:6** *nikolaschilar* — o'zlarini masihiymiz deb aytadigan mazhab. Chamasi, bu mazhab a'zolari masihiylarni butlarga keltirilgan qurbonlik go'shtini yeyishga va fahsh-zino qilishga undagan (shu bobning 14-15-oyatlariga qarang). Ularning bunday qarashlari, masihiylar uchun hech qanday cheklovlar yo'q, degan tushunchani suiiste'mol qilish natijasida kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Nikolaschilarning bu qarashlari Quddusdagi jamoat yetakchilari bergan ko'rsatmalarga mutlaqo zid edi (Havoriylar 15:28-29 oyatlarga va Havoriylar 15:20 ning izohlariga qarang).

**2:7** *hayot daraxti* — 22:2, 14 ga qarang.

**2:8** *Smirna* — hozirgi Turkiyaning Izmir shahri.

**2:9** ...*chekkan azoblarini...* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *ishlarini, chekkan azoblarini*.

**2:9** *O'zini Xudoning xalqi deb ataganlar...Ular Xudoning xalqi emas...* — yunoncha matnda *O'zlarini yahudiy deb ataganlar...Ular yahudiy emas...*, o'sha hududdagi masihiylarga qarshi chiqqan yahudiylarga ishora. Buning mohiyati shundaki, ular yahudiy bo'lsalar ham, Iso Masihning Xushxabarini rad qilganlari uchun, Xudoning xalqi hisoblanmas edilar. Yana Yuhanno 8:34-37, Rimliklar 2:28-29 ga qarang.

**2:10** *o'n kun* — ehtimol, azob kunlari qisqa muddatda tugashini bildiradigan ramziy sonidir.

**2:11** *ikkinchi o'lim* — do'zaxga, Xudodan to abad ajralishga ishora (20:11-14, 21:8 ga qarang). Birinchi o'lim insonning jismoniy o'limidir.

**2:13** ...*qayerda yashayotganini...* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *ishlarini, qayerda yashayotganini*.

**2:13** *Shahringda shaytonning taxti joylashgan* — Pergamon Rim imperiyasining Asiya viloyatida joylashgan bo'lib, imperatorga sajda qilish markazi edi. Shu sababdan bu oyatda, shahringda shaytonning taxti joylashgan, deb aytilgan bo'lishi mumkin.

**2:13** *Antipas* — an'anaga ko'ra Asiyadagi birinchi masihiy shahid.

**2:14** *Balom* — Mo'ab va Midiyon xalqlari bilan qilgan hamkorligi uchun Balom Isroil xalqining dushmani hisoblangan edi (Sahroda 25:1-5, 16-18, 31:16, Yoshua 13:22, 24:9-10, Yahudo 11-oyatga qarang).

**2:15** *nikolaschilar* — shu bobning 6-oyati izohiga qarang.

**2:17** *pinhon saqlangan manna* — Zabur 77:24 ga va o'sha oyatning izohiga qarang. Yana Yuhanno 6:32-58 ga qarang.

**2:17** *oq tosh* — ramziy ma'noni ifodalab, Qo'zining to'y ziyofatiga kirish huquqini beradigan taklifnoma (19:9 ga va Luqo 13:29 ga qarang).

**2:20** *Izabel* — Eski Ahdda Isroil shohi Axabning butparast va yovuz xotini (3 Shohlar 16:30-31, 21:23-25, 4 Shohlar 9:22 ga qarang). Bu o'rinda xulq-atvori Izabelnikiga o'xshagan jamoatdagi bir ayol nazarda tutilgan bo'lsa kerak. Ehtimol, bu ayol nikolaschilar mazhabining a'zosi bo'lgandir (shu bobning 6-oyati izohiga qarang).

**2:23** *izdoshlari* — yunoncha matnda *farzandlari*. "Farzandlari" deganda muallif Izabelning izdoshlarini nazarda tutgan bo'lishi mumkin.

**2:24** «*shaytonning sirlari*» — o'sha Izabel deb atalgan ayol o'rgatayotgan bir ta'limotga ishora bo'lsa kerak. Ba'zi mazhablarning a'zolari, imonlilarning ruhiy hayoti ularning o'z tanalarida qilgan ishlariga aloqador emas, deb o'rgatardi. Ularning ta'limoti bo'yicha, inoyatni to'liqroq tushunish va yovuzni yengish uchun imonlilar shayton haqida chuqurroq o'rganishlari, hatto butparastlarning udumlari va marosimlariga qo'shilishlari kerak emish.

**2:27** *Ular...parchalashadi* — Zabur 2:9 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

**2:28** *tong yulduzi* — zuhra yulduziga ishora bo'lishi mumkin. Bu yulduz g'alaba va hukmronlik ramzi edi.

**3:1** *jamoatining farishtasi* — 1:20 izohiga qarang.

**3:2** *Imonini saqlab qolganlar* — shu bobning 4-oyatiga qarang.

**3:5** *hayot kitobi* — Xudo O'ziga tegishli bo'lganlarning ismlarini yozib qo'ygan kitob (20:11-15 ga qarang).

**3:7** *Shoh Dovudning kaliti* — shoh Dovud avlodidan bo'lgan Isoning Masih sifatidagi hokimiyatiga ishora. Iso bu hokimiyati bilan Unga ishonganlarning hammasiga Xudoning Shohligi darvozasini ochib berishga qodir.

**3:9** *Ular o'zlarini Xudoning xalqi deb ataydilar...ular Xudoning xalqi emaslar* — yunoncha matnda *Ular o'zlarini yahudiy deb ataganlar...ular yahudiy emaslar* (2:9 ning ikkinchi izohiga qarang).

**3:14** *Xudo yaratgan borliqning Asoschisi* — Yuhanno 1:3, Kolosaliklar 1:15-17 ga qarang.

**3:14** *Omin* — bu o'rinda unvon bo'lib, ma'nosi *ishonchli, haq*.

**3:15** *na sovuq va na issiqsan* — Laodikiya shahri o'z suvlari bilan mashhur bo'lgan Giyerapolis va Kolosa shaharlari orasida joylashgan edi. Giyerapolis shahri shimol tomonda, tibbiyotda ishlatilgan issiq buloq suvlari bilan mashhur bo'lgan. Kolosa shahri esa janubi-sharq tomonda, o'zining toza, muzday suvlari bilan mashhur bo'lgan. Laodikiyaning o'zida yaxshi suv manbayi yo'q edi. Iso Masih mana shularni nazarda tutib, Laodikiya shahridagi imonlilarni ogohlantiryapti. Ularning ruhiy hayoti na sovuq suvga, na issiq suvga o'xshardi, bemaza ili-miliq suvday bo'lib qolgandi. Ular atrofida gilarga yordam bermas edilar, boshqalarga foydalari tegmas edi.

**3:18** *...oltinni...oq kiyim...ko'zlaringga surtadigan malhamni...* — kinoyali tomoni shundaki, mana shu uch narsa Laodikiya aholisining faxri bo'lgan. Ularning shahri o'z boyligi, gazmol ishlab chiqarish sanoati va dunyoga keng tarqalgan ko'zga shifo beradigan malhami bilan mashhur edi.

**5:1** *o'rama qog'oz* — qadimgi paytlarda kitoblar o'rama shaklda bo'lgan.

**5:5** *Yahudo qabilasidan bo'lgan Sher* — *Dovud urug'idan chiqqan Zot* — ya'ni Masih bo'lgan Iso (Ibtido 49:9-10, Ishayo 11:1, 10 ga qarang).

**5:14** *sajda qildilar* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *to abad barhayot Zotga sajda qildilar*.

**6:6** *bir kunlik ish haqi* — yunoncha matnda *dinor*, Rim kumush tangasi. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi. Don tanqisligi sababli, shu qadar qimmat bo'lishiga ishora.

**6:6** *bir kosa...uch kosa* — yunoncha matnda *xiniks...uch xiniks*, taxminan 1 litrga va 3 litrga to'g'ri keladi.

**7:9** *palma daraxti shoxlari* — hayot va najot ramzi bo'lib, g'olib lashkarboshiga yoki shohga hurmat-ehtirom ko'rsatishda foydalanilgan.

**8:11** *Erman* — ta'mi achchiq o'simlik, kulfat va qayg'u ramzi.

**8:13** *burgut* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *farishta*.

**9:1** *yulduz* — majoziy ma'noda farishtaga ishora (20:1 ga qarang).

**9:3** *chigirtkalar* — haqiqiy chigirtkalar emas, chigirtkaga o'xshagan bir mavjudot. Chigirtkalar ba'zan to'da-to'da bo'lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan

hasharot. Ular katta talafot timsoli edi, shuning uchun majoziy ma'noda katta lashkarga ishora qiladi.

**9:4** *Xudoning muhri* — 7:1-8 ga qarang.

**9:13** *oltin qurbongohning to'rtta shoxi* — qurbongohning tepasidagi to'rt burchagidan to'rtta shox bo'rtib chiqqan edi. Lug'atdagi QURBONGOHI so'zi ostida berilgan TUTATQI QURBONGOHI iborasiga ishlangan rasmga qarang.

**10:2** *o'rama qog'oz* — 5:1 izohiga qarang.

**11:2** *muqaddas shahar* — ya'ni Quddus.

**11:3** *...qanor kiyib...* — qanor dag'al qoramtir mato bo'lib, echki yoki tuya junidan to'qilgan va ko'pincha payg'ambarlar kiygan. Qanor kiyib olish umidsizlikni va qayg'uli holatni ifodalaydi. Ko'pincha bu harakat Xudodan kechirim so'rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

**11:3** *1260 kun* — ya'ni 42 oy yoki uch yarim yil.

**11:7** *tubsiz chuqurlikdan chiqqan bir maxluq* — 13:1-7 ga qarang.

**11:8** *buyuk shahar* — Bobilga ishora. Vahiy kitobida Bobil nomi Masih va Uning Shohligiga qarshi chiqqan dushmanlarining timsolidir (14:8 izohiga qarang). Iso o'sha shaharda, ya'ni hozir shayton hukmronligi ostida bo'lgan bu dunyoda xochga mixlangan.

**11:8** *Sado'm va Misr* — Sado'm o'z axloqsizligi bilan tanilgan shahar edi (Ibtido 19:4-13 ga qarang). Misr esa Xudoning xalqiga zulm o'tkazgan, ularni qul qilgan yurt edi (Chiqish 1:8-14, 3:7 ga qarang). Masihga va Uning Shohligiga qarshi chiqqan dushmanlarga mos keladigan nomlar.

**11:17** *...hozir ham borsan* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *hozir ham borsan, kelajakda ham bor bo'lasan*.

**11:19** *...Xudoning Ahd sandig'i ko'rindi* — bu sandiq Xudoning O'z xalqi bilan tuzgan ahdigga sodiq qolganini bildiradi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi AHD so'ziga va AHD SANDIG'I iborasiga qarang.

**12:5** *...barcha xalqlarni temir xivchin bilan boshqaradigan...* — Zabur 2:9 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

**12:7** *Mikoyil* — bosh farishtalardan biri. Doniyor 10:12-13, 20-21, 12:1 ga qarang.

**12:14** *uch yarim yil* — yunoncha matndan so'zma-so'z tarjimasi *bir muddat, muddatlar va yarim muddat* (ba'zan *muddat* so'zi bir yilga nisbatan ishlatilgan). Uch yarim yil 1260 kunga to'g'ri keladi (shu bobning 6-oyatiga qarang).

**13:1** *Ajdarho...turdi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Men...turdim*.

**13:8** *hayot kitobi* — 3:5 izohiga qarang.

**13:8** *Ularning ismlari...dunyo yaratilishidan oldin yozilmagan* — yoki *Bu odamlarning ismlari dunyo yaratilishidan oldin bo'g'izlangan Qo'zining hayot kitobiga yozilmagan*. Ammo 17:8 oyatda bu odamlarning ismlari "dunyo yaratilishidan oldin hayot kitobiga yozilmagan" deb aytiladi. Shuning uchun ushbu oyatda 17:8 oyatga mos keladigan ma'no berilgan.

**13:10** *Ba'zilar...qilichdan o'tkaziladi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida

*Kimki boshqalarni asirlikka olsa, o'zi asirlikka tushar. Kimki qilichdan o'tkazsa, o'zi qilichdan o'tkazilar.*

**13:18** *Uning soni 666* — maxluqning nomini ifodalaydigan sonlar qo'shilganda mana shu son kelib chiqsa kerak. Ibroniya va yunon alifbesining har bir harfi ma'lum bir sonni ifodalaydi. 6 soni muvaffaqiyatsizlik, qusur va yovuzlik timsoli edi (barkamollik timsoli bo'lgan 7 sonidan bitta kam). Uchta 6 sonining yonma-yon kelishi muvaffaqiyatsizlik, qusur va yovuzlik ma'nosini g'oyat kuchaytiradi.

**14:1** *Sion tog'i* — Quddusdagi Ma'bad qurilgan tepalik Sion tog'i deb atalgan. Eski Ahddagi she'riy parchalarda va payg'ambarlar bitiklarida Sion so'zi ko'pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi SION so'ziga qarang.

**14:4** *...bokira qizlarday o'zlarini pok saqlaganlar* — majoziy ma'noni ifodalab, ular Xudoga sodiq ekanliklarini, boshqa hech kimga va hech narsaga sajda qilmaganlarini ko'rsatadi.

**14:5** *...ular benuqsondirlar* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Xudoning taxti oldida ular benuqsondirlar*.

**14:8** *Bobil shahri* — Eski Ahd davrida jahondagi eng qudratli imperiyaning poytaxti bo'lgan. Bu shahar mag'rurligi (Doniyor 4:27 ga qarang) va axloqsizligi bilan nom chiqargan edi. U Xudoning xalqiga dushman bo'lgan (miloddan oldingi 586 yilda Babil shohi Navuxadnazar Quddusni vayron qilib, aholining asosiy qismini Babilga surgun qilgan, 4 Shohlar 25:1-21 ga qarang). Ushbu kitob yozilgan paytda imonlilar Babil nomini ba'zan Rimga nisbatan ishlatar edilar. Rim o'sha davrda hukmron bo'lgan imperiyaning poytaxti bo'lib, butparastlik va axloqsizlik o'chog'i edi. Vahiy kitobida Babil nomi Masih va Uning Shohligiga qarshi chiqqan dushmanlarining timsoli bo'lib, hozirgi paytda shaytonning hukmronligi ostida bo'lgan bu dunyoni bildiradi. Yana 17:1-6, 19:2 ga qarang.

**14:14** *inson qiyofasidagi bir Zot* — Iso Masihga ishora. Doniyor 7:13-14 ga qarang.

**14:19** *chuqur* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o'yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o'sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi. Uzum ezish Muqaddas Kitobda ko'pincha Xudoning odamlar ustidan chiqaradigan hukmiga nisbatan ko'chma ma'noda ishlatilgan.

**14:20** *1600 o'q otimi* — yunoncha matnda *1600 stadion*, taxminan 300 kilometr ga to'g'ri keladi. Chamasi, 1600 soni ramziy ma'noda ishlatilgan bo'lib, Xudoning hukmi dunyoning to'rt burchiga yetib borishini ko'rsatadi.

**15:2** *nomini bildirgan son* — 13:18 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

**15:3** *Musoning va Qo'zining qo'shig'ini* — bu qo'shiq Chiqish 15:1-18 dagi qo'shiqning ancha qisqargan varianti.

**15:5** *Ma'badning Eng muqaddas xonasi* — Ma'badning eng ichkari xonasi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi ENG MUQADDAS XONA iborasiga qarang.

**16:13** *soxta payg'ambar* — 13:11-17 da aytib o'tilgan ikkinchi maxluq nazarda tutilgan.

**16:19** *Bobil shahri* — 14:8 izohiga qarang.

**16:21** *ikki pud* — yunoncha matnda *bir talant*, taxminan 34 kiloga to'g'ri keladi.

**17:1** *Fohisha timsolidagi bu buyuk shahar...* — Bobilga ishora (14:8 izohiga qarang).

21:9 da xuddi shu farishta Yuhannoga Qo'zining kelinchagini ko'rsatadi. Kelinchak Bobil va shayton shohligiga zid bo'lgan Quddus va Xudo Shohligining timsolidir.

**17:1** *...serob suvlar bo'yida joylashgan* — Yeremiyo 51:13 ga qarang. Qadimiy Bobil shahri Furot daryosi bo'yida joylashgan bo'lib, murakkab va keng tarmoqli sug'orish tizimiga ega edi. Bu sug'orish tizimi shahar atrofidagi hududlarni suv bilan ta'minlagan. Bobilning sug'orish tizimi bu o'rinda uning butun dunyoga ko'rsatadigan ta'sirining timsolidir (shu bobning 2, 15-oyatlariga qarang).

**17:3** *maxluq* — 13:1-7 ga qarang.

**17:8** *hayot kitobi* — 3:5 izohiga qarang.

**18:2** *Bobil* — 14:8 izohiga qarang.

**18:13** *mirra* — ma'lum bir daraxtlarning qotgan yelimidan tayyorlangan qimmatbaho xushbo'y modda.

**19:3** *Bobil* — 14:8 izohiga qarang.

**19:15** *...temir xivchin bilan ularni boshqaradi* — Zabur 2:9 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

**19:15** *chuqur* — 14:19 izohiga qarang.

**19:20** *soxta payg'ambar* — 13:11-17 da aytib o'tilgan ikkinchi maxluq nazarda tutilgan.

**20:4** *Xudo...oqlagan edi* — yoki *Xudo taxtlarda o'tirganlarga hukm etish huquqini bergan edi* yoxud *Xudo taxtlarda o'tirganlarga hukmronlik huquqini bergan edi*. Ammo Doniyor 7:22 ga ham qarang.

**20:5-6** *Ikkinchi o'lim* — shu bobning 11-14-oyatlariga va 14-oyatning izohiga qarang.

**20:7** *Go'g va Mago'g* — ramziy nomlar. Bu nomlar oxirgi marta Xudoning xalqiga hujum qilish uchun yig'iladigan dunyo xalqlariga ishora qiladi.

**20:8** *Xudo yaxshi ko'radigan shahar* — ya'ni Quddus.

**20:10** *soxta payg'ambar* — 13:11-17 da aytib o'tilgan ikkinchi maxluq nazarda tutilgan.

**20:12** *Hayot kitobi* — Xudo O'ziga tegishli bo'lganlarning ismlarini yozib qo'ygan kitob.

**20:13** *o'liklar diyori* — yahudiylar bu joyni, yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong'i joy, deb tushunardi.

**20:14** *ikkinchi o'lim* — do'zaxga, Xudodan to'ab ad ajralishga ishora. Birinchi o'lim insonning jismoniy o'limidir.

**21:6** *Ibtido va Intiho* — yunoncha matnda *Alfa va Omega*, ya'ni yunon alifbesining birinchi va so'nggi harflari.

**21:8** *ikkinchi o'lim* — do'zaxga, Xudodan to'ab ad ajralishga ishora. Birinchi o'lim insonning jismoniy o'limidir.

**21:16** *12.000 o'q otimi* — yunoncha matnda *12.000 stadion*, taxminan 2250 kilometr ga to'g'ri keladi. Bu shahar katta kub shaklida tasvirlangan, bu timsol uning kattaligiga,



barkamolligiga va chiroyiga ishora qiladi.

**21:17** *balandligi* — yoki *qalinligi*.

**21:17** *144 tirsak* — taxminan 65 metrga to'g'ri keladi.

**21:19** *turli qimmatbaho toshlar* — yunoncha matnda aytib o'tilgan ba'zi qimmatbaho toshlarning turi bahsli.

**21:27** *hayot kitobi* — 3:5 izohiga qarang.

**22:13** *Ibtido va Intiho* — yunoncha matnda *Alfa va Omega*, ya'ni yunon alifbesining birinchi va so'nggi harflari.

**22:14** *Liboslarini yuvganlar* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *uning amrlariga bo'ysunganlar*.

**22:16** *Dovud ildizidan chiqqan Zot* — Ishayo 11:1 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

**22:17** *Ushbu bashorat so'zlarni tinglayotgan kishi...* — 1:3 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

**22:19** *...o'sha kishini bu kitobda yozilgan hayot daraxtidan va muqaddas shahardan benasib qiladi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *o'sha kishini hayot kitobidan, muqaddas shahardan va mazkur kitobda yozilgan narsalardan benasib qiladi*.

**22:21** Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'z oyatga qo'shimcha qilingan: *omin*.